

Volume 03, Issue 04

ISSN: 3030-3249

AGROINNOVATSIYA



06.00.00 - Qishloq xo‘jaligi fanlari



agroinnovatsiya.uz

ResearchBib Impact Factor: 10.71 / 2025

AGROINNOVATSIYA

АГРОИННОВАЦИЯ

AGROINNOVATION

Agroinnovatsiya jurnali bir yilda 4 marta chop etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2023-yil 7-iyulda 099525 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Jurnal dan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.“ Agroinnovatsiya " ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2025-yil 12- fevraldagi 367-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga qishloq xo‘jaligi bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 190100, Termiz shahar, I. Karimov ko‘chasi, 288A-uy. Tel.: (0376) 221-87-20. Sayt: www.agroinnovatsiya.uz.

**Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
qoshidagi “Agroinnovatsiya” ilmiy jurnalining tahrir hay’ati a’zolari**

№	FISH	Ish joyi	Ilmiy darajasi va unvoni
1	Jurayev A.S.	Bosh muharrir	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
2	Jumayev Sh.M.	Tahririyat kengashi raisi – Ilmiy-tadqiqotlar, inovatsiyalar va ilmiy- pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i	Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
3	Imamov F.Z.	Mas’ul kotib – O‘simliklar himoyasi, agrokimyo va agrotuproqshunoslik kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
4	Primkulov B.Sh.	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor	Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
5	Urozov M.K.	Ilmiy ishlar va inovatsiyalar bo‘yicha prorektor	Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent
6	Nurmatov N.J.	Termiz davlat pedagogika instituti	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori
7	Nadjiyev J.N.	Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori
8	Aramov M.X.	Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
9	Boltayev S.M.	Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik kafedrası kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
10	Haytmurodov A.F.	O‘simliklar himoyasi, agrokimyo va agrotuproqshunoslik kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent
11	Qarshiyeva U.Sh.	Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), dotsent

12	Tadjiyev K.M.	Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik kafedrası	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), dotsent
13	Abduraximov N.N.	Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik kafedrası mudiri	Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent
14	Karimov Sh.A.	Zooinjeneriya, veterinariya va ipakchilik kafedrası mudiri	Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent
15	Tangirov Q.J.	Zooinjeneriya, veterinariya va ipakchilik kafedrası	Veterinariya fanlari nomzodi, dotsent
16	Turakulov A.A.	Iqtisodiyot, o‘rmonchilik va veterinariya fakulteti dekani	Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
17	Bo‘riyev A.A.	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i	Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
18	Kozirev S.G.	Shimoliy Kavkaz tog‘li va tog‘oldi qishloq xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti “Rossiya fanlar akademiyasi Vladikavkaz ilmiy markazi” direktori (Rossiya Federatsiyasi)	Biologiya fanlari doktori, professor
19	Velikanov V.V.	Belorussiya Davlat qishloq xo‘jaligi Akademiyasi rektori (Belorussiya)	Veterinariya fanlari nomzodi, dotsent
20	Skorina V.V.	Belorussiya Davlat qishloq xo‘jaligi Akademiyasi, meva-sabzavotchilik kafedrası (Belorussiya)	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
21	Golubev YU.P.	A.S.Pushkin nomidagi Brest davlat universiteti (Belorussiya)	Texnika fanlari nomzodi, dotsent
22	Mamadova K.G‘.	Ozərbayjon Davlat Agrar Universiteti oziq ovqat xavfsizligi va gigienasi kafedrası (Ozərbayjon)	Texnika fanlari nomzodi, dotsent



23	Intan Noor Aina Binti Kamaruzaman	Universiti Malaysia Kelantan (Malayziya)	DVM (UMK) PhD (Liverpool)
----	---	---	------------------------------

**ПУШТИ РАНГЛИ ЎРТА МЕВАЛИ ПОМИДОР НАВ ВА ДУРАГАЙЛАРИ
СЕЛЕКЦИЯСИ УЧУН БОШЛАНГИЧ МАНБА****Алматов Бахром Тухтамуратович**

Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий
тадқиқот институти таянч докторанти
baxromalmatov05@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0006-0089-611X>
Тел.: +998919717103

**Арамов Музаффар Хошимович**

Термиз давлат мухандислик ва агротехнологиялар
университети Мева-сабзавотчилик, узумчилик
кафедраси профессори , қ.х.ф.д.
E-mail: aramov-muzaffar@mail.ru
<https://orcid.org/0009 0004 2792 3283>
Тел.: +998902356161

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ўзбекистон жанубида ўрта меваги пуштиранг помидор нави ва дурагайлари селекцияси учун бошланғич манба яратиш бўйича тадқиқотлар натижаси келтирилган. Вегетация даври, ўсимлик баландлиги, мева вазни, мева баландлиги, меванинг эни, меванинг индекси, ёрилишга мойиллиги, меванинг биохимиявий таркиби, ҳосилдорлик бўйича истиқболли навлар ажратилган ва улар селекция ишлари учун бошланғич манба сифатида тавсия этилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Помидор, пуштиранг, ўсимлик баландлиги, мева вазни, мева баландлиги, мева эни, мева индекси, ёрилишга мойиллиги, биохимиявий таркиби, ҳосилдорлик, вегетация даври.

**ИСХОДНЫЙ МАТЕРИАЛ ДЛЯ СЕЛЕКЦИИ СРЕДНЕПЛОДНЫХ СОРТОВ И
ГИБРИДОВ ТОМАТА С РОЗОВОЙ ОКРАСКОЙ****Алматов Бахром Тухтамуратович.**Докторант Научно-исследовательского института
овоще-бахчевых культур и картофеля

baxromalmatov05@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-0089-611X>

Тел.: +998919717103

Арамов Музаффар Хошимович.д.с.х.н., профессор кафедры плодовоовощеводства и виноградарства
Термезского государственного университета инженерии и агротехнологийE-mail: aramov-muzaffar@mail.ru<https://orcid.org/0009-0004-2792-3283>

Тел.: +998902356161

АННОТАЦИЯ

В статье представлены результаты исследований по выявлению исходного материала для селекции среднеплодных сортов и гибридов томата с розовой окраской на юге Узбекистана. Отобраны перспективные среднеплодные сорта с розовой окраской по периоду вегетации, высоте растений, массе плодов, высоте и ширине плодов, индексу плодов, склонности к растрескиванию, биохимическому составу, продуктивности. Они рекомендованы в качестве исходного источника для селекционной работы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Томат, розовая окраска, высота растения, масса плода, высота и ширина плода, индекс плода, склонность к растрескиванию, биохимический состав, урожайность, вегетационный период.

**SOURCE MATERIAL FOR BREEDING MEDIUM-FRUIT VARIETIES AND HYBRIDS
OF TOMATO WITH PINK COLOR****Almatov Bakhrom Tukhtamuratovich.**

Doctoral student of the Research Institute of Vegetables, Melons and Potatoes

baxromalmatov05@gmail.com<https://orcid.org/0009-0006-0089-611X>

Тел.: +998919717103

Aramov Muzafar Khoshimovich.Professor of the Department of Fruit and Vegetable Growing
and Viticulture of the Termez State University of Engineering
and Agricultural Technologye-mail: aramov-muzaffar@mail.ru<https://orcid.org/0009-0004-2792-3283>**ABSTRACT**

The article presents the results of studies on identifying the source material for breeding medium-fruited varieties and hybrids of tomato with pink coloring in the south of Uzbekistan. Promising medium-fruited varieties with pink coloring were selected based on the vegetation period,

plant height, fruit weight, fruit height and width, fruit index, tendency to cracking, biochemical composition, and productivity. They are recommended as the source for breeding work.

KEYWORDS: Tomato, pink coloring, plant height, fruit weight, fruit height and width, fruit index, tendency to cracking, biochemical composition, productivity, vegetation period.

КИРИШ. Пушти рангли помидорлар азалдан Хитой, Япония мамлакатларида кенг тарқалган ва истеъмол қилинган. Кейинчалик у Европа мамлакатларига тарқалган.

Ўзбекистонда ҳам помидорнинг пушти рангли маҳаллий навлари етиштирилиб, истеъмол қилиниб келинмоқда. Ҳозир давлат реестрида 3 та: Севара, Баходир, Дархон навлари киритилган. Аммо, улар ҳозирги бозор талабларига жавоб бера оладиган навлар эмас.

Ҳозирги пайтда сабзавот экинлари селекцияси ва уруғчилиги билан шуғулланиб келаётган чет эл фирма, компания ва илмий тадқиқот муассасалари каталогларида турли туман пушти рангли нав ва дурагайлар таснифи келтирилган. Жумладан, Sakata (Япония) фирмасида яратилган F₁ Пинк парадайз дурагайи республикамызда иссиқхоналарда кўплаб етиштирилмоқда.

Республикамызда пушти рангли помидор нав ва дурагайларини яратиш бўйича мақсадли илмий тадқиқот ишлари олиб борилмаган.

Шундан келиб чиқиб 2022-2024 йилларда СПЭ ва КИТИ Сурхондарё илмий тажриба станциясида 41 та пушти рангли помидор нав намуналари ўрганилди. Ушбу мақолада ўрта мева (100 г гача) навларни ўрганиш натижалари келтирилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА ТАДҚИҚОТЛАР УСЛУБИ

Алимов Ш.К., Тареев М.М. (2015) маълумотларига кўра 2015 йил Ўзбекистонда “Пушти рангли помидор: Ўрта Осиёда ишлаб чиқариш, истеъмол қилиш ва бозор талаблари” мавзусида биринчи Ҳалқаро конференция ўтказилган. Келтирилган маълумотларга қараганда 2015 йилда Ўзбекистонда 500 га иссиқхоналарда ва 2000 га очик майдонларда пушти рангли помидор етиштирилган. Статистик маълумотлар бўйича 2014 йил октябрь ойидан 2015 йил май ойигача етиштирилган пушти рангли помидорнинг 90 % Россия Федерациясига экспорт қилинган.

Пушти рангли помидор нав ва дурагайлари селекцияси билан деярли жуда кўплаб илмий тадқиқот институтлари, селекция ва уруғчилик компаниялари шуғулланмоқда.

Россия Федерацияси Астрахань вилоятида жойлашган Бутунроссия суғорма сабзавотчилик ва полизчилик ИТИ да помидор нав ва дурагайларини яратиш борасида кенг камровли селекция ишлари олиб борилган. Авдеев А.Ю (2006), Авдеев Ю.И., Авдеев А.Ю., Иванова Л.М., Кигашпаева О.П., Бочкарёва Е.С (2010), Авдеев А.Ю., Авдеев Ю.И., Иванова Л.М., Кигашпаева О.П., Лаврова Л.П., Джабраилов В.Ю., Катакаев Н.Х., Бажмаева Ф.К. (2012), Авдеев Ю.И., Авдеев А.Ю., Иванова Л.М., Кигашпаева О.П. (2012) лар томонидан олиб борилган кўп йиллик селекция ишлари натижасида пушти рангли Малиновой Шар, Малиновка, Клеопатра, Супергол малиновый, Малиновый глобус, Бычье сердце малиновое, Лучистый, Гигант полосатый, Гигантелла навлари яратилган.

“Гавриш” компаниясида F₁Пантикапей, F₁Понт, F₁Прагматик, F₁Пятница, F₁Розалетта, F₁Розмакс, F₁Ролекс, F₁Родбиф, F₁Мамба, F₁Самба, F₁К-1074/12 ва шу каби бир қатор пушти рангли биринчи авлод дурагайлари яратилган (Выродова, Янович, 2008; Кибанова, Гиш, 2016; Гавриш, Редичкина, 2013 ваб.х.)

“Поиск” агрохлодингида F₁Розанна, F₁Розетта, F₁Боярин, F₁Пресиановский, F₁Сударь, F₁Розовый фрегат, F₁Розовый носик, F₁Легионер каби пушти рангли помидор дурагайлари яратилган (Огнев, Терешонкова, Ховрин, 2017; Огнев, Чернова, Костенко, Барбарицкая, Ховрин, Терешонкова, 2018; Чернова, Огнев, Корсунов, 2019). Келтирилган маълумотлар пушти рангли помидор нав ва дурагайлари яратишда катта натижаларга эришилганлиги ва бу селекциянинг асосий йўналишларидан бири эканлигини кўрсатади

Тадқиқотлар Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томаты, перцы, баклажаны) [ВИР. Л., 1977], «Методика полевого опыта» (Доспехов, 1985), «Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов» (М., 1982), «Методика полевого опыта в овощеводстве» (М., 2011) каби услубий кўрсатмалар ва услублар асосида олиб борилди.

Тажриба қайтариқсиз. Ҳисоб бўлмачаси майдони 4,5 м². Бўлмача 2 қаторли. Бўлмачада ўсимликлар сони 20 та. Экиш схемаси 90 x 25 см. Тажибада стандарт нав Севара ҳар 10 та нав намунасидан кейин жойлаштирилди.

Уруғлар биогумус ва тупроқ (2:1 нисбатда) аралашмаси билан тўлдирилган кассеталарга февралнинг биринчи ўн кунлигида сепилди. Кўчатлар 4-5 барг даврида баландлиги 15-17 см бўлганда очиқ далаларга чиқариб ўтказилади.

ТАДҚИҚОТЛАР НАТИЖАСИ. Вегетация даври ҳар хил бўлган нав ёки дурагай яратиш селекциянинг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади. Эртапишарлик жуда мураккаб белги бўлиб, у жуда кўп белгилар билан чамбарчас боғланган. Алоҳида ривожланиш фазалари ва бутун вегетация даврининг давомийлиги ҳақидаги маълумотлар эртапишар нав ёки дурагайлар селекцияси учун ота-она шаклларни танлашда муҳим ҳисобланади. Помидорда асосан 2 та ривожланиш фазасини аниқлаш одат тусига кирган. Биринчиси униб чиқиш-гуллаш, иккинчиси гуллаш-меваларнинг пишиши даврларидир. Етакчи селекционер олимлар академиклар Д.Д.Бреженев (1956), А.В.Алпатыев (1981), к.х.ф.д., профессорлар Ю.И.Авдеев (1982), С.Н.Гавриш (2014) тадқиқотларига кўра ана шу даврлар бир-бирига боғлиқ бўлмаган ҳолда мустақил ҳолда наслдан-наслга берилади. Бу эса қисқа биринчи даврга эга бўлган навларни қисқа иккинчи даврга эга бўлган навлар билан чатиштириш асосида жуда эртапишар нав ва дурагайлар олиш имконини беради.

Ўрта мевали навлардан Малиновы Ожаровски (49 кун), Соколиный клюв (49 кун), Розовый пупс (48) кабилар униб чиқиш-гуллаш даврининг нисбатан қисқалиги билан ажралиб туради. Розовый каскад (59 кун), Розовая свеча (62 кун), Японский трюфель розовый (64-кун), Каскадый уд (64 кун) каби навларда бу давр жуда давомий бўлди ва 59-64 кунни ташкил этди (1-жадвал). Бошқа ўрганилган навларда бу даврнинг давомийлиги 50-54 кун атрофида бўлди. Эртапишар пушти рангли навлар яратишда униб чиқиш-гуллаш даврининг давомийлиги 48-49 кун бўлган Малиновы Ожаровски, Соколиный клюв, Розовый пупс навлари истиқболли бўлиб ҳисобланади. Гуллаш-меваларнинг техник пишиши даврининг қисқалиги билан Севара, Свадьба в Малиновке, Розовый-483, Лотос, F₁ Малиновые яблочки, Малиновы Ожаровски, Розовый пупс, Розовая свеча, Японский трюфель розовый, Каскадый уд каби навлар ажралиб турди ва бу даврнинг давомийлиги 44-49 кунни ташкил этди. Бу даврнинг жуда қисқалиги билан Ляна розовая нави ажралиб турди ва бу даврнинг давомийлиги 41 кунни ташкил этди.

Маълумки, ўсув (вегетация) даврнинг давомийлигига қараб помидор нав ва дурагайлари жуда эртапишар (105 кунгача), эртапишар (106-110 кун), ўрта эртапишар (111-115), кечпишар (116-120) бўлиши мумкин (3).

1-жадвал

Ўрта мевали нав намуналари ривожланиш даврларининг давомийлиги, 2022- 2024 йй.

т/р	Нав номи	Ривожланиш даврининг давомийлиги, кун		Ўсув даври ёки ёппасига униб чиққандан меваларнинг дастлабки пишишигача бўлган давр
		Ёппасига униб чиқиши-дастлабки гуллаши	Ёппасига гуллаши-меваларнинг дастлабки пишиши	
1	Севара, ст.	50	44	94
2	Малиновый мёд	51	52	103
3	Румяный мужичок F ₁	52	53	105
4	Свадьба в Малиновке	53	49	102
5	Розовый-483	54	49	103
6	А-17	49	52	101
7	Лакомка	50	56	106
8	F ₁ Розовая Андромеда	53	52	105
9	Розовый каскад	59	52	111
10	Лотос	53	48	101
11	Ляна розовая	52	41	93
12	Малиновые яблочки F ₁	51	47	98
13	Малиновы Ожаровски	49	45	94
14	Соколиный клюв	49	52	101
15	Розовый пупс	48	49	97
16	Розовая свечка	62	49	111
17	Японский трюфель розовый	64	47	111
18	Каскадный уд	64	47	111
19	Домашняя заготовка	51	59	110

Вегетация даври ёки ёппасига униб чиққандан дастлабки меваларнинг дастлабки пишишигача бўлган даврнинг қисқалиги билан Севара, Ляна розовая, F₁ Малиновые яблочки, Малиновы Ожаровски, Розовый пупс навлари ажралиб турди. Ушбу навларда вегетация даврнинг давомийлиги 94-99 кунни ташкил этди ва улар қабул қилинган градацияга кўра жуда эртапишар гуруҳга киритилади. Эртапишар нав ва дурагайлар яратишда ушбу гуруҳга киритилган навлар жуда истиқболли бўлиб ҳисобланади.

Ўрта мевали пушти рангли помидор нав намуналарининг морфобиологик тавсифи 2 жадвалда келтирилган. Ўсимлик баландлиги бўйича навлар турли-туман эканлиги маълум бўлди. Энг паст бўйли детерминант (44-54 см) ўсимликлар Севара, Розовый пупс навларида

кузатилди. Жуда кўпчилик Малиновый мёд, F₁ Румяный мужичок, Свадьба в Малиновке, Розовый-483, А-17, Лакомка, F₁ Розовая Андромеда, Соколиный клюв каби навлар эртапишар гуруҳга киритилади. Буларда амал даври 101-107-кунни ташкил этди. Амал даври 111 кун бўлган Розовая свеча, Японский трюфель розовый, Каскадный уд навлари ўрта эртапишар навлар ҳисобланади.

Ўсимлик баландлиги ҳам муҳим белгилардан бири ҳисобланади. Ўсимлик баландлиги бўйича навлар қуйидаги гуруҳларга бўлинади: супердетерминант, пакана (30 см гача), детерминант, паст бўйли (30-50 см), ярим детерминант, ўрта бўйли (51-90 см), индетерминант, баланд бўйли (91-150 см), жуда баланд бўйли (150 см дан юқори). Бизнинг тадқиқотларимизда супердетерминант навлар аниқланмади.

Севара, Розовый пупс, Каскадный уд навларида ўсимлик баландлиги 44-50 см бўлиб, улар детерминант гуруҳга киритилди. Бундай детерминант навлар саноат асосида етиштиришни тўлиқ механизациялаш имконини беради.

Ярим детерминант навларга F₁ Румяный мужичок, Домашняя заготовка, Розовый-483, F₁ Розовая Андромеда, Лотос, Ляна розовая, F₁ Малиновые яблочки, Соколиный клюв, Японский трюфель розовый кабилар киритилди ва уларда ўсимлик баландлиги 60-83 см ни ташкил этди. Узун палакли Малиновый мёд, Свадьба в Малиновке, А-17, Лакомка, Розовый каскад, Малиновы Ожаровски, Розовая свеча навларида ўсимлик баландлиги 101-118 см ни ташкил этди. Бундай навлар томарка хўжаликларида ва иссиқхоналарда етиштириш учун мўлжалланган навлар яратишда истиқболли бўлиб ҳисобланади.

Мева вазни ҳам муҳим хўжалик белгиларидан бири ҳисобланади. Ҳозирги пайтда истеъмолчи ёки бозор томонидан мевасининг катталиги ҳар хил 10 г дан 500 г гача бўлган нав ва дурагайларга талаб катта бўлмоқда.

Ўрганилган ўрта мевали пушти рангли помидор нав намуналарида мева вазни 51-98 г атрофида бўлди. Нисбатан кичик мевалар Розовая свечка навида кузатилади ва 35 г ни ташкил этди. Бу белги жиҳатидан ўрганилган навлар истиқболли ҳисобланади.

2-жадвал

Пушти ранг помидор нав намуналарининг морфобиологик тавсифи, 2022-2024 й.й.

№	Нав намуналари	Ўсимлик баландлиги, см	Мева				Ёрилишга мойиллиги	Қаттиқлиги, балл
			вазни, г	баландлиги, см	эни, см	индекси		
1	Севара, ст.	44	73	4,4	5,1	0,9	чидамли	3
2	Малиновый мёд	105	90	4,5	5,7	0,8	ўртача	3
3	Румяный мужичок F ₁	73	93	4,7	5,5	0,9	ўртача	3
4	Свадьба в Малиновке	106	83	4,6	5,3	0,9	ўртача	4
5	Розовый-483	83	88	4,8	5,3	0,9	ўртача	4
6	А-17	104	87	4,6	5,5	0,8	чидамли	4

7	Лакомка	106	78	4,7	5,1	0,9	ўртача	3
8	F ₁ Розовая Андромеда	71	82	4,5	5,2	0,9	ўртача	3
9	Розовый каскад	118	60	4,8	4,4	1,1	ўртача	4
10	Лотос	64	66	4,2	5,0	0,8	ўртача	4
11	Ляна розовая	67	63	4,5	4,9	0,9	чидамли	4
12	Малиновые яблочки F ₁	76	53	4,1	4,7	0,9	чидамли	4
13	Малиновы Ожаровски	105	59	4,4	4,7	0,9	чидамсиз	3
14	Соколиный клюв	73	94	7,1	4,7	1,5	ўртача	3
15	Розовый пупс	54	59	5,0	4,5	1,1	ўртача	3
16	Розовая свечка	101	35	7,1	3,1	2,3	ўртача	4
17	Японский трюфель розовый	82	51	5,4	4,0	1,3	ўртача	3
18	Каскадный уд	50	62	4,1	4,9	0,8	ўртача	3
19	Домашняя заготовка	61	98	6,4	5,2	1,2	чидамли	4

Мева шакли ўрганилган кўпгина навларда юмалоқ, ясси-юмалоқ (индекси 0,8-0,9) бўлди. Шу билан бир каторда узунчоқ (индекси 1,3-1,5) Соколиный клюв, Японский трюфель розовый, Домашняя заготовка навлари ва жуда узунчоқ (индекси 2,3) Розовая свечка нави ажратилди.

Кўпчилик пушти рангли помидор мевалари ёрилишга мойил бўлади. Бу эса уларнинг транспортбоплиги ва товарбоплигини пасайтиради.

Мевалари ёрилишга чидамли Севара, А-17, Ляна розовая, F₁ Малиновые яблочки, Домашняя заготовка навлари ажратилди. Малиновы Ожаровски нави мевалари ёрилишга жуда мойил бўлади. Бошқа ўрганилган навларда меваларнинг ёрилишига чидамлилиги ўртача бўлди ёки улар ёрилишга мойиллиги кучли бўлди.

Ҳосилдорлик ва унинг сифати у ёки бу навнинг ишлаб чиқаришга яроқлилигини белгилайдиган кўрсаткич ҳисобланади.

Ўрганилган ўрта мевали пушти рангли помидор нав намуналарининг умумий ҳосилдорлиги 8,2 дан 60,2 т/га гача бўлди, 3-жадвал. Энг юқори умумий ҳосилдорлик Ляна розовая, F₁ Малиновые яблочки, Малиновы Ожаровски, F₁ Румяный мужичок, А-17 каби нав ва дурагайларда кузатилди. Ҳосилдорлик ушбу навларда 47,0-60,2 т/га ни ташкил этди.

Ушбу навларда умумий ҳосилдорлик стандарт Севара навига нисбатан 123,7-158,4 % юқори бўлди. Лотос, Лакомка, Соколиный клюв, Свадьба в Малиновке, Малиновый мёд каби нав намуналари умумий ҳосилдорлиги стандарт навга тенг ёки унга нисбатан биров юқори бўлди.

Шу билан бир қаторда ҳосилдорлиги нисбатан паст нав намуналари ҳам ажратилди. Бундай навларга Розовый каскад, Каскадный уд, Розовая свечка, Японский трюфель розовый кабилар киритилди. Уларнинг умумий ҳосилдорлиги 8,2-26,3 т/га ни ташкил этди. Бу стандарт навга нисбатан 21,5-69,2 % демакдир.

Энг юқори эртаги ҳосилдорлик (биринчи уч терим) F₁ Малиновые яблочки, F₁ Румяный мужичок, Свадьба в Малиновке, А-17, Малиновый мёд нав намуналарида кузатилди. Ушбу навларда эртаги ҳосилдорлик 23,2-27,2 т/га ни ташкил этди ва бу стандарт Севара навига нисбатан 129,6-151,9 % эканлиги аниқланди. Ляна розовая, Лотос, Соколиный клюв, Розовый-483, Домашняя заготовка каби навлар эртаги ҳосилдорлиги бўйича стандарт нав билан тенг ёки ундан биров юқори бўлди.

Товарбоп ҳосилдорлик Ляна розовая, F₁ Малиновые яблочки, Малиновы Ожаровски, F₁ Румяный мужичок, А-17 каби нав намуналарида юқори бўлди ва 44,7-57,3 т/га ни ташкил этди. Бу стандарт Севара навига нисбатан 122,5-156,9 % ни ташкил этади. Товарбоп ҳосилнинг ушбу навларда юқорилиги умумий ҳосилдорликнинг юқорилиги, меваларнинг ёрилишга чидамлилиги ва қаттиқлиги билан изоҳланади.

Товарбоп ҳосилдорлиги бўйича стандартга нисбатан паст кўрсаткичга эга бўлган навлар ҳам мавжуд, лекин уларда умумий ҳосилда товарбоп ҳосилнинг улуши жуда катта бўлди.

Хусусан, Домашняя заготовка навининг умумий ҳосилдорлиги 33,4 т/га (стандартга нисбатан 87,9 %) ни, товарбоп ҳосил эса 30,9 т/га ни ташкил этди. Товарбоп ҳосилнинг умумий ҳосилдаги улуши 92,5 % ни ташкил этди. Лакомка навида умумий ҳосилдорлик 39,1 т/га ни, товарбоп ҳосилдорлик эса 37,4 т/га ни ташкил этди. Ҳосилнинг товарбоплиги 95,6 % ни ташкил этди. Бундай навлар ҳам бошланғич манба сифатида алоҳида аҳамият касб этади.

3-жадвал

Ўрта мевали помидор нав намуналарининг умумий, эртаги ва товарбоп ҳосилдорлиги, 2022-2024 й.

Т/р	Нав ва дурагайлар	Умумий ҳосилдорлик, т/га		Эртаги ҳосилдорлик, т/га		Товарбоп ҳосилдорлик, т/га	
		т/га	Стандарт навга нисбатан, %	т/га	Стандарт навга нисбатан, %	т/га	Стандарт навга нисбатан, %
1	Севара, ст.	38,0	100	17,9	100	36,5	100
2	Ляна розовая	60,2	158,4	18,1	101,1	57,3	156,9
3	Малиновые яблочки F ₁	49,4	130	23,2	129,6	47,8	130,9
4	Малиновы Ожаровски	50,7	133,4	10,6	59,2	47,8	130,9
5	Лотос	41,9	110,2	20,3	113,4	39,9	109,3
6	Румяный мужичок F ₁	48,3	127,1	24,4	136,3	45,8	125,4
7	Лакомка	39,1	102,8	17,1	95,5	37,4	102,4
8	Розовый пупс	36,5	96,0	13,9	77,6	33,9	92,8
9	F ₁ Розовая Андромеда	37,5	98,6	16,9	94,4	35,6	97,5
10	Соколиный клюв	43,6	114,7	18,2	101,6	40,7	111,5

11	Свадьба в Малиновке	43,6	114,7	24,3	135,7	41,4	113,4
12	A-17	47,0	123,6	27,2	151,9	44,7	122,4
13	Розовый-483	40,8	107,3	21,3	118,9	38,4	105,2
14	Розовый каскад	26,3	69,2	14,7	82,1	25,1	68,7
15	Малиновый мёд	42,1	110,7	23,3	130,1	39,6	108,4
16	Каскадный уд	19,1	50,2	15,4	86,0	17,2	47,1
17	Розовая свечка	12,1	31,8	9,0	50,2	10,9	29,8
18	Японский трюфель розовый	8,2	21,5	6,5	36,3	7,8	21,3
19	Домашняя заготовка	33,4	87,9	18,9	105,6	30,9	84,7

МУҲОКАМА

Ўзбекистонда пушти рангли помидор нав ва дурагайларига эҳтиёж жуда катта бўлишига қарамасдан бу йўналишда мақсадли селекция ишлари етарли даражада олиб борилмаган. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида етиштиришга тавсия этилган кишлоқ хўжалиги экинлари давлат реестрига Баҳодир, Севара, Дархон каби навлар киритилган. Аммо улар ҳозирги кун талабига жавоб бермайди. Мамлакатимизда пушти рангли помидор нав ва дурагайлари яратиш бўйича мақсадли илмий тадқиқот ишлари олиб борилмаган. Шундан келиб чиқиб пушти рангли помидор селекцияси учун бошланғич манба ажратиш мақсадида турли эколого-географик минтақалардан олиб келинган 41 та нав намуналари ҳар томонлама ўрганилди ва истиқболли нав намуналари ажратилди. Бу ажратилган нав намуналари эрта ва ўртапишар, мевасининг вазни ва шакли турлича, серҳосил нав ва дурагайлар олиш учун қимматли бошланғич манба бўлиб хизмат қилади.

ХУЛОСА

1. Турли эколого-географик минтақалардан келтирилган 19 та ўрта мевали пушти рангли нав ва дурагайлар ўрганилган ва селекция ишлари учун қимматли бошланғич манба ажратилган.

2. Эртапишар нав ва дурагайлар селекцияси учун вегетация даври 94-99 кун бўлган Севара, Ляна розовая, F₁ Малиновые яблочки, Малиновы Ожаровски каби навлар тавсия этилади.

3. Энг юқори умумий (47,0-60,2 т/га) ва товарбоп (44,7-57,3 т/га) ҳосилдорлик Ляна розовая, F₁ Малиновы яблочки, F₁ Румяный мужичок, Малиновы Ожаровски, А-17 навларида кузатилди ва улар юқори ҳосилли нав ва дурагайлар яратишда қимматли бошланғич манба бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алимов Ш., Тарасев М.М. «1-международная конференция розовый томат: производство, потребление и рыночные тренды в центральной азии» Овощи России. Научно-практический журнал.-2015. №3-4.-С.62-63.
2. Авдеев А.Ю. Селекция и испытание сортов томата для индивидуальных и коллективных хозяйства Нижнего Поволжье //Автореф. дисс... канд.с.-х.наук. Астрахань.-2006.-23с.
3. Авдеев Ю.И., Авдеев А.Ю., Иванова Л.М., Кигашпаева О.П., Бочкарёва Е.С. Биологическое преимущество гетерозисной селекции над селекцией сортов-

- заблуждение и поддерживаемый миф... новые подходы в селекции. // Овощи России.- 2010.- №3 (9).-С.48-54.
4. Авдеев А.Ю., Авдеев Ю.И., Иванова Л.М., Кигашпаева О.П., Лаврова Л.П., Джабраилов В.Ю., Катакаев Н.Х., Бажмаева Ф.К. Некоторые результаты селекции сортов овощных культур для Юга России.//Теоретические и прикладные проблемы АПК.-2012.-№3.-С.10-12.
 5. Авдеев А.Ю., Авдеев Ю.И., Иванова Л.М., Кигашпаева О.П. Метод селекции томата с малиновыми плодами, обладающими высокой устойчивостью к растрескиванию. //Матер.международ. науч.прак.конф. “Орашаемое овощеводство бахчеводство в развитии адаптивно-ландшафтных систем Юга России”. Изд. РАСХН-ВНИИООБ, Астрахань- 2012. –С. 76-78.
 6. Выродова А.П., Яновчик О.Е. Окраска плодов томата определяет их биологическую ценность. // Картофель и овощи.-2008.-№2.-С.30.
 7. Гавриш С.Ф., Редичкина Т.А. Мелкоплодные гибриды томата для защищенного грунта. ГАВРИШ.-2013.- №4.-С.7-9.
 8. Кибанова Н. А., Гиш Р. А. Сортоиспытание новых розовоплодных гибридов томатов в зимних и необогреваемых пленочных теплицах. X всероссийская конференция молодых ученых Краснодар.-2016. -С.688-689.
 9. Огнев В.В., Терешонкова Т.А., Ховрин А.Н. Томаты для юга: потребности рынка и ответы отечественной селекции. // Картофель и овощи.-2017.-№11.-С.34-36.
 10. Огнев В.В., Чернова Т.В., Костенко А.Н., Бабарицкая И.В., Ховрин А.Н., Терешонкова Т.А. Розовоплодный гибрид томата F₁ Першановский в открытом грунте на юге России. //Картофель и овощи.-2018.-№11.-С.20.
 11. Чернова Т.В., Огнев В.В., Корсунов Е.И. Томаты на юге России. Овощеводство.-2019.- №11.-с.20-23.
 12. Методические указания по изучению и поддержанию мировой коллекции овощных пасленовых культур (томаты, перцы, баклажаны). – Л. – ВИР. – 1977. – 23 с.
 13. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. -1985. –С. 163-164.
 14. Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов. Л.,1982. –С. 10-17.
 15. Литвинов С. С. Методика полевого опыта в овощеводстве. –М.-2011.-650 с.
 16. Брежнев Д.Д. Томаты. – Л.: Государственное издательство сельскохозяйственной литературы, 1955. – 351 с.
 17. Алпатъев А.В. Помидоры. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
 18. Авдеев Ю.И. Селекция томатов. – Кишинев: Штиинца, 1982. – 284 с.
 19. Гавриш С.Ф. Томаты. –М.-2014.-95 с.

**MINTAQALAR IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KLAS-
TER TIZIMINING O'RNI****Eshqorayev Javohir**

Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot, o'rmonchilik va veterinariya fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi talabasi

<https://orcid.org/0009-0000-9666-5098>

eshqorayevjavohir@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda klaster tizimining o'rni va samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Klasterlashuv mintaqada ichidagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy infratuzilma tizimlarini yagona iqtisodiy makonda integratsiya qilish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida agroklasteralar, to'qimachilik klasterlari, chorvachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyati misolida tarmoq hamkorligi, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish jarayonlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida klaster yondashuvini kuchaytirish iqtisodiy barqarorlik, bandlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: klaster tizimi, iqtisodiy barqarorlik, hududiy rivojlanish, agroklasteralar, kooperatsiya, innovatsiya, eksport salohiyati.

Аннотация

В данной статье научно обосновано значение кластерной системы в обеспечении экономической устойчивости регионов. Кластер рассматривается как механизм интеграции производственных, сервисных и социальных инфраструктур внутри региона в едином экономическом пространстве. На примере агрокластеров, текстильных, животноводческих и плодоовощных кластеров Узбекистана анализируются процессы отраслевого сотрудничества, рационального использования ресурсов, внедрения инноваций и увеличения экспортного потенциала. Результаты исследования показывают, что усиление кластерного подхода в региональных стратегиях развития служит важным фактором обеспечения устойчивости экономики, занятости и конкурентоспособности.

Ключевые слова: кластерная система, экономическая устойчивость, региональное развитие, агрокластер, кооперация, инновации, экспортный потенциал.

Abstract

This article scientifically substantiates the role of the cluster system in ensuring the economic stability of regions. The cluster is interpreted as a mechanism for integrating production, service, and

social infrastructure within a region into a unified economic space. The study analyzes the activities of agricultural, textile, livestock, and horticultural clusters in Uzbekistan, focusing on sectoral cooperation, efficient resource utilization, implementation of innovative technologies, and export capacity growth. The research results show that strengthening the cluster approach in regional development strategies is a key factor in ensuring economic sustainability, employment, and competitiveness.

Keywords: cluster system, economic stability, regional development, agro-cluster, cooperation, innovation, export capacity.

Kirish

Klasterlarning iqtisodiy ahamiyati bugungi global iqtisodiyotda tobora ortib bormoqda. Jahon Iqtisodiy Forumining 2023-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyo bo‘yicha 5 mingdan ortiq faol klaster mavjud bo‘lib, ular mahalliy hududlarning iqtisodiy o‘rinishini rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. OECD tadqiqotlarida ta‘kidlanishicha, klaster modeli ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini o‘rtacha 20–30 foizgacha oshirishi mumkin. Masalan, AQShning Texas shtatida shakllangan neft-gaz klasteri 2,5 milliondan ortiq aholini ish bilan ta‘minlab, hudud iqtisodiyotining ustuvor drayveriga aylangan[1].

O‘zbekistonda klaster tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. O‘zstat ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yil holatiga respublikada 100 dan ortiq klasterlar faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi agroklastlar iqtisodiy samaradorlikni oshirishda sezilarli natijalar bermoqda: 2022-yilda agroklastlar tomonidan \$1,2 milliard miqdorida mahsulot eksport qilingan. Farg‘ona vodiysida tashkil etilgan paxta-to‘qimachilik klasterlari esa 15 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga sabab bo‘ldi[2].

Umuman olganda, klasterlar – bir-biri bilan iqtisodiy, texnologik va tashkiliy jihatdan bog‘langan korxonalar, ilmiy tadqiqot markazlari, ta‘lim muassasalari hamda davlat institutlarining muayyan hududdagi integratsiyalashgan tizimidir. Klasterlash jarayoni mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida maydonga chiqib, hudud ichidagi ishlab chiqarish zanjirlarini uyg‘unlashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Xususan, turizm sohasida klasterlarning shakllanishi yangi xizmat turlari rivojlanishi, hududlararo iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, ichki va tashqi turizm oqimlarining ko‘payishi hamda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga imkon yaratadi[3].

Mintaqaviy iqtisodiyotda klaster modelini joriy etishning zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Resurslardan oqilona foydalanish. Korxonalar va tashkilotlarning geografik yaqin joylashuvi xom ashyo, transport va infratuzilma xarajatlarini kamaytiradi, bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi.

Innovatsion salohiyatning kuchayishi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratish jarayonini tezlashtiradi.

Bandlikning oshishi va iqtisodiy diversifikatsiya. Kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratadi, aholining daromad darajasini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Hududning raqobat afzalliklarini shakllantirish. Har bir mintaq o‘z resurslari va iqtisodiy salohiyati asosida o‘ziga xos ixtisoslashuvga ega bo‘ladi.

Global iqtisodiyotga integratsiya. Klasterlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro bozorlar bilan hamkorlikni kengaytirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ekologik barqarorlikni kuchaytirish. Klaster asosida ishlab chiqarishda toza texnologiyalarni qo'llash ekologik xavflarni kamaytiradi.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Klaster modeli davlat siyosati va xususiy tashabbuslarning uyg'unlashuviga imkon beradi[4].

Mintaqalar iqtisodiy barqarorligi – milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim tarkibiy omillaridan biridir. Chunki har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat bozori, ishlab chiqarish salohiyati va infratuzilma darajasi o'ziga xos bo'lib, ular iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globallashtirish sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlash uchun an'anaviy boshqaruv usullari yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiyotda klaster tizimi hududlar raqobatbardoshligini oshirishda samarali mexanizm sifatida qaralmoqda.

Klaster yondashuvi mohiyatan bir hududda o'zaro bog'liq korxonalar, ilmiy muassasalar, xizmat ko'rsatish markazlari va logistika infratuzilmasining yagona zanjirda faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, qo'shimcha qiymatning oshishi, innovatsion texnologiyalar transferi va bandlikning ko'payishiga olib keladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika va turizm sohalarida agroklastarlar va tarmoq klasterlari faol ravishda rivojlanmoqda. Xususan, Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot yetishtirish klasterlari, Andijon va Farg'onada chorvachilik klasterlari, Toshkent va Samarqandda to'qimachilik klasterlari shakllantirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola klaster tizimining hududiy iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish, uning ustun va zaif tomonlarini aniqlash, hamda klaster modelini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda klaster tizimining o'rnini o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Klaster konsepsiyasi ilmiy adabiyotlarda asosan XX asrning oxirida shakllangan bo'lib, bu borada amerikalik iqtisodchi M. Porterning izlanishlari muhim o'rin tutadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, klaster – bu geografik jihatdan yaqin bo'lgan korxona va tashkilotlarning ma'lum bir tarmoq doirasida o'zaro raqobat va hamkorlik asosida faoliyat yuritishini nazarda tutuvchi iqtisodiy modeldir. Porter ta'kidlaganidek, klasterlar milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy drayverlardir, chunki ular innovatsion faoliyatni tezlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi (Porter M., The Competitive Advantage of Nations, 1990).

Yevropa Ittifoqi iqtisodchilarining tadqiqotlarida esa klasterlar mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning muhim vositasi sifatida talqin etiladi. Masalan, A. Marshall va G. Richardson asarlarida klasterlar «industrial district» (sanoat okrugi) tushunchasi bilan izohlanadi. Ularning fikricha, bir hududda bir-biriga yaqin korxonalar joylashuvi aglomeratsiya effektini kuchaytirib, ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksizligini ta'minlaydi hamda logistika xarajatlarini kamaytiradi.

Rossiyalik olimlar A.G. Granberg, S.Yu. Glazyev va V.L. Kvintlar mintaqaviy rivojlanish modellarini o'rgangan holda klasterlashuvning iqtisodiy strategik ahamiyatiga e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, klaster tizimi hududiy resurslar potentsialini to'liq safarbar qilish va ichki bozorni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, klasterlar pandemiyalar, global narx o'zgarishlari va tashqi ta'minot zanjiri uzilishlariga nisbatan iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida klaster modelining joriy etilishi 2017-yildan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon, avvalo, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida kuzatildi. Prezidentimizning PF-4947-sonli Farmoni (2017-yil) va PQ-4239-sonli Qarori (2019-yil) bilan qishloq xo‘jaligida klaster tizimi asosida ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksportni tashkil etish mexanizmlari belgilandi. Shuningdek, 2020–2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida agroklastlarlar tarmoq kooperatsiyasini kuchaytirishning asosiy vositasi sifatida e‘tirof etilgan.

Mahalliy olimlardan M. Ismoilov, X. Jo‘raqulov, D. Sodiqov, R. Ibrohimov, Sh. A. Abdullayev va boshqalarning tadqiqotlarida klaster tizimining O‘zbekiston sharoitiga moslashuvi, hududiy mehnat taqsimoti va resurslardan oqilona foydalanish masalalari keng yoritilgan. Ularning fikriga ko‘ra, agroklastlarlar mintaqalarda qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish orqali iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Shu bilan birga, ayrim ilmiy manbalarda klasterlashuv jarayonida tizimli muammolar ham qayd etiladi, xususan:

- klaster ishtirokchilari o‘rtasida manfaatlar muvofiqlashuvining sustligi;
- boshqaruvning markazlashgan tizimga tayanishi;
- kadrlar tayyorlash va malaka muammolari;
- logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Bundan tashqari, agroklastlarlar bilan sanoat klasterlari o‘rtasida vertikal integratsiya yetarlicha kuchli emas. Bu esa hududlarda sanoat – qishloq xo‘jaligi – xizmat ko‘rsatish o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning uzluksizligini cheklaydi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilinganda, klaster samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liqligi namoyon bo‘ladi:

- Transport va logistika infratuzilmasi rivojlanganligi;
- Hududiy kooperatsiya madaniyatining shakllanganligi;
- Ilmiy-innovatsion markazlar bilan uzviy aloqadorlik;
- Mahsulotga bo‘lgan tashqi talabning barqarorligi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, klaster yondashuvi mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda muhim strategik mexanizm sifatida xizmat qiladi, ammo uning samaradorligi boshqaruv, kooperatsiya, infratuzilma va innovatsion muhitga bevosita bog‘liq.

Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda klaster tizimining o‘rnini baholash va u orqali hududiy rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash, taqqoslama iqtisodiy tahlil, statistik va iqtisodiy-matematik modellash, shuningdek, ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy manbalar, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari hamda amaliy faoliyat yuritayotgan klaster subyektlarining hisobotlari tahlil qilindi.

1. Tadqiqot ob‘yekti va predmeti

Tadqiqotning ob‘yekti — O‘zbekiston mintaqalarida agroklastlarlar va boshqa tarmoq klasterlarining shakllanishi, boshqarilishi va iqtisodiy natijalari. Tadqiqotning predmeti — klaster tizimining hududiy iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlari, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda klasterlararo kooperatsiya jarayonlari.

2. Tadqiqot yondashuvi

Tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshirildi:

Bosqich	Amalga oshirilgan ishlar	Natija
1-bosqich: Nazariy tahlil	Klasterlarning mohiyati, turlari, rivojlanish modellari o‘rganildi	Klaster tizimining nazariy modeli shakllantirildi
2-bosqich: Normativ-huquqiy asoslarni o‘rganish	PF-4947, PQ-4239 va Qishloq xo‘jaligi strategiyasi hujjatlari tahlil qilindi	O‘zbekistonda klasterlashuvning institutsional modeli aniqlandi
3-bosqich: Statistik tahlil	Hududlar kesimida ishlab chiqarish, bandlik va eksport dinamikasi baholandi	Klasterlarning mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatish darajasi aniqlangan
4-bosqich: Ekspert baholash	Fermerlar, agrosanoat korxonalari rahbarlari va iqtisodchilar fikri o‘rganildi	Klaster tizimidagi muammolar va imkoniyatlar tizimlashtirildi

IZOH

1-bosqich. Nazariy tahlil

Amalga oshirilgan ishlar:

Klasterlarning mohiyati, ularning shakllanish tamoyillari hamda rivojlanish modellariga doir ilmiy adabiyotlar o‘rganilgan.

Turli davlatlar tajribasi tahlil qilingan va nazariy asoslar umumlashtirilgan.

Natija:

Klaster tizimining nazariy modeli shakllantirildi, ya‘ni “klaster” tushunchasi, tuzilishi, faoliyat mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslandi.

2-bosqich. Normativ-huquqiy asoslarni o‘rganish

Amalga oshirilgan ishlar:

PF-4947, PQ-4239 kabi davlat strategiyalari, qishloq xo‘jaligi va sanoat klasterlari bo‘yicha hukumat qarorlari tahlil qilindi.

Klasterlashuvni qo‘llab-quvvatlaydigan huquqiy baza chuqur o‘rganildi.

Natija:

O‘zbekistonda klasterlashuvning **institutsional modeli** aniqlandi, ya‘ni klasterlar davlat tomonidan qanday tartibda boshqarilishi va qo‘llab-quvvatlanishi belgilab olindi.

3-bosqich. Statistik tahlil

Amalga oshirilgan ishlar:

Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, eksport dinamikasi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Klasterlar joriy etilgan va joriy etilmagan hududlar o‘rtasida taqqoslovchi tahlil olib borildi.

Natija:

Klasterlarning **mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘siri** miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida belgilandi. Ularning iqtisodiy o‘rishga, ish o‘rinlari yaratishga va eksportga qo‘shgan hissi aniqlashtirildi.

4-bosqich. Ekspert baholash

Amalga oshirilgan ishlar:

Fermerlar, klaster korxonalari rahbarlari, iqtisodchilar va soha mutaxassislaridan intervyular olingan.

Klaster tizimiga oid amaliy muammolar va takliflar yig‘ilgan.

Natija:

Klaster tizimidagi mavjud muammolar, imkoniyatlar va takomillashtirish yo‘nalishlari tizimlashtirildi.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Ma‘lumotlar bazasi va ularni qayta ishlash usullari

Tadqiqotda quyidagi ma‘lumotlar bazalaridan foydalanildi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (hududlar bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi, eksport tarkibi)

Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma‘lumotlari

Qishloq xo‘jaligi klasterlarining yillik hisobotlari

Mahalliy tahlil markazlarining ekspert sharhlari

Ma‘lumotlar Microsoft Excel, SPSS va STATA dasturlari yordamida qayta ishlanib, dinamik qatorlar, korrelyatsion bog‘lanish va trend tahlili usullari qo‘llanildi.

4. Klaster samaradorligini baholash mezonlari

Tadqiqotda klaster tizimining iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

Ishlab chiqarish samaradorligi – hosildorlik, ishlab chiqarish hajmi, qayta ishlash darajasi

Moliyaviy samaradorlik – rentabellik, tannarxning pasayishi, foyda normasi

Ijtimoiy samaradorlik – bandlik o‘sishi, aholi daromadlarining ko‘payishi

Hududiy raqobatbardoshlik – eksport hajmi, mahsulot assortimenti, bozor ulushi

Innovatsion rivojlanish darajasi – agrotexnologiyalar va qishloq xo‘jaligi texnikasining joriy etilishi

5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy yangiliklar shakllandi:

Klaster tizimining mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir mexanizmining tizimli modeli ishlab chiqildi.

Klaster faoliyati samaradorligini baholashning kompleks integrallashgan ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi.

Hudud miqyosida klasterlararo kooperatsiyani kuchaytirishga qaratilgan boshqaruv strategiyasi asoslab berildi.

6. Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari:

Hududiy iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqishda,

Agroklasterlar boshqaruvini modernizatsiya qilishda,

Investitsiya va logistika rejalashtirishida,

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarida

bevosita qo‘llanishi mumkin.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, klaster tizimi mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda ko‘p qirrali ta‘sir mexanizmlariga ega bo‘lib, u ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ta‘lim, logistika va innovatsion texnologiyalarni yagona iqtisodiy makonda integratsiyalash imkonini beradi. Klasterlar faoliyati natijasida hududlarda qo‘shimcha qiymat zanjiri (Value-Added Chain)

shakllanadi, bu esa mahsulotning qishloq xo'jaligidan tortib qayta ishlash, saqlash, transport qilish, marketing va eksportgacha bo'lgan bosqichlarini bir tizimda boshqarish imkonini beradi.

1. Klaster tizimining hududiy iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'siri

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, klasterlar mintaqaviy iqtisodiyotga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

Ta'sir yo'nalishi	Natija
Ishlab chiqarish samaradorligi	Hosildorlik oshishi, tannarx kamayishi
Bandlik darajasi	Yangi ish o'rinlarining yaratilishi
Eksport salohiyati	Tashqi bozorga chiqish imkoniyati kengayishi
Innovatsion rivojlanish	Zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilishi
Hududiy raqobatbardoshlik	Mahsulot sifatining oshishi va brend yaratish

Mazkur jadvalda klaster tizimi joriy etilgan hududlarda kuzatiladigan asosiy **ta'sir yo'nalishlari** va ularga mos **kutilayotgan natijalar** aks ettirilgan. Klasterlashuvning mazmuni shundan iboratki, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va marketing jarayonlari yagona tizimda birlashtiriladi. Natijada resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sish omillari kuchayadi.

1. Ishlab chiqarish samaradorligi → Hosildorlik oshishi, tannarx kamayishi

Klaster doirasida ilg'or agrotexnologiyalar va mexanizatsiya qo'llaniladi.

Xomashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlovchilar va eksportchilar o'zaro uzviy bog'langan bo'lgani uchun **resurs isrofi kamayadi**.

Natija: yuqori hosildorlik va arzon tannarx hisobiga mahsulot raqobatbardoshligi ortadi.

2. Bandlik darajasi → Yangi ish o'rinlarining yaratilishi

Klasterlardan tashkil topgan korxonalar ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlarida yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Natija: mahalliy aholini ish bilan ta'minlash yaxshilanadi, aholining daromadlari ortadi.

3. Eksport salohiyati → Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati kengayishi

Klasterlar bir xil standartga ega bo'lgan sifatli mahsulot ishlab chiqaradi.

Marketing va logistika markazlari tashqi bozorlarga kirishni osonlashtiradi.

Natija: eksport geografiyasi kengayadi va valyuta tushumi oshadi.

4. Innovatsion rivojlanish → Zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilishi

Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda seleksiya, urug'chilik va texnologik jarayonlar modernizatsiya qilinadi.

Natija: ishlab chiqarishga **innovatsiya** kirib keladi va sanoat raqobatbardoshligi kuchayadi.

5. Hududiy raqobatbardoshlik → Mahsulot sifatining oshishi va brend yaratilishi

Hududning o'ziga xos resurs imkoniyatlari (iqlim, loyiha tajribasi) hisobga olinadi.

Mahsulotlar geografik va marketing brend sifatida tan olinadi.

Natija: hududning investitsion jozibadorligi oshadi.

Masalan, Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan meva-sabzavotchilik klasterlari oxirgi uch yilda eksport hajmini 1,8 barobarga oshirgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning meva-sabzavot eksporti 2020-yildagi 87 mln. AQSh dollaridan 2023-yilda 158 mln. dollarga yetgan. Bu klasterlarning eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishdan olinayotgan qo'shimcha daromad hajmi ortganini ko'rsatadi.

2. Ishlab chiqarish samaradorligi va tannarx dinamikasi

Klaster tizimi eng avvalo resurslardan samarali foydalanish va tannarxni kamaytirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, klaster tarkibidagi korxonalarda:

urug‘lik materiallari xarajatlari 12–14% ga,

yoqilg‘i-energetika xarajatlari 8–11% ga,

logistika xarajatlari 15–18% ga

kamaygan.

Bu jarayon vertikal integratsiya modeli orqali izohlanadi: xomashyo bazasi → qayta ishlash → logistika → sotuv → eksport zanjirining uzluksizligi umumiy xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

3. Bandlik va aholi daromadlarining o‘shishi

Tadqiqot vaqtida o‘tkazilgan ekspert baholash va statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, klasterlar faoliyati natijasida qishloq joylarda bandlik darajasi sezilarli oshgan.

Masalan:

Hudud	Klaster turi	Yaralgan ish o‘rinlari soni (2020–2023)
Surxondaryo	Meva-sabzavot + issiqxona	+7 200 ta
Qashqadaryo	Paxta-to‘qimachilik	+4 350 ta
Farg‘ona	Chorvachilik + sut klasteri	+3 100 ta
Andijon	Pillachilik va ipak	+2 600 ta

Natijada, bandlikning oshishi aholi daromadlarida ham ijobiy dinamikani yuzaga keltirdi. Modellashtirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, kooperatsiya asosida ishlovchi oilaviy fermer xo‘jaliklarida o‘rtacha oylik sof daromad 32–38% ga ko‘tarilgan.

4. Eksport salohiyatining oshishi va tovar geografiyasi kengayishi

Klasterlar eksportni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki eksport bozorlariga chiqish uchun:

sifat standartlari

sertifikatsiyalash jarayonlari

logistika yo‘nalishlari

tashqi bozor talabi

yagona boshqaruv markazi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Masalan, “Surxondaryofresh” brendi ostida ishlab chiqarilayotgan anor, xurmo va pomidor mahsulotlari aynan klaster yondashuvi natijasida:

Rossiya, BAA, Saudiya Arabistoni, Qozog‘iston bozorlariga eksport qilinmoqda.

Bu esa hudud uchun valyuta tushumining oshishi va iqtisodiy mustaqillikning kuchayishiga xizmat qilmoqda.

5. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur‘ati

Klasterlarning innovatsion samaradorligi quyidagi omillarda namoyon bo‘ladi:

aqlli irrigatsiya tizimlari, issiqxona mikroiqlimini avtomatik boshqarish, GPS asosidagi texnik mehnatni rejalashtirish, suv tejovchi tomchilatib sug‘orish texnologiyalari.

Misol uchun, Denov tumanidagi issiqxona klasterlari tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish orqali suv sarfini 42% ga kamaytirgan.

6. Muhokama: mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, klaster tizimi ijobiy natijalar bilan birga qator cheklolarga ham ega:

Muammo	Sabab	Taklif
Korxonalar o‘rtasida manfaatlar moslashuvi sust	Kooperatsiya madaniyatining pastligi	Yagona kooperatsiya reglamentlarini joriy etish
Logistika infratuzilmasi zaif	Sovutkichli transport va omborlar yetishmasligi	Hududiy logistika markazlarini tashkil etish
Kadrlar yetishmovchiligi	Agronom, injener, texnologlar tanqisligi	Dual ta‘lim va klaster ichida o‘quv markazlari
Innovatsiya joriy etilishining sekinligi	Moliyaviy manbalar cheklangan	Davlat–xususiy sheriklik asosida innovatsion grantlar

1. Muammo: Korxonalar o‘rtasida manfaatlar moslashuvi sust

Sabab:

Kooperatsiya madaniyatining pastligi, ya’ni korxonalar bir-biri bilan ochiq hamkorlik qilishga to‘liq tayyor emas.

Alohida harakat qilishga odatlanish.

Taklif:

Klaster ichida **yagona kooperatsiya reglamentlari** (qoidalar, majburiyatlar, kelishuv mexanizmlari)ni joriy etish.

Bu barcha ishtirokchilarning manfaatini uyg‘unlashtirib, nizolarni kamaytiradi.

2. Muammo: Logistika infratuzilmasi zaif

Sabab:

Sovutkichli transportlar yetishmasligi,

Mahsulotni saqlash uchun zamonaviy omborlarning kamligi.

Taklif:

Hududlarda **logistika markazlarini tashkil etish** (sovuq zanjir, saqlash, saralash, qadoqlash).

Bu mahsulot sifatini saqlaydi, yo‘qotishlarni kamaytiradi, eksportga yordam beradi.

3. Muammo: Kadrlar yetishmovchiligi

Sabab:

Agronomlar, texnologlar, injenerlar tanqisligi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimi yetarli emas.

Taklif:

Dual ta‘lim tizimini joriy etish (ya’ni o‘qish + amaliyot klaster korxonalarida).

Klaster ichida malaka oshirish markazlari tashkil etish.

Natija: soha uchun amaliy ko‘nikmaga ega malakali kadrlar yetishadi.

4. Muammo: Innovatsiya joriy etilishining sekinligi

Sabab:

Ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklarni moliyalashtirish manbalari cheklangan.

Taklif:

Davlat–xususiy sheriklik asosida **innovatsion grantlar va imtiyozli subsidiyalar** ajratish.

Bu yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezroq kiritish imkonini beradi.

Shu sababli, klaster tizimining samaradorligini oshirish uchun:

klaster boshqaruvini desentralizatsiya qilish, xomashyo yetkazib beruvchilar va qayta ishlovchilarning kooperatsiya kelishuvlarini standartlashtirish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan klasterlar hamkorligini kengaytirish lozim.



Viloyatda tadbirkorlar tomonidan hosildorligi past, sho'rlangan yerlar qayta o'zlashtirilib, ularda zamonaviy agrar talablarga asoslangan yangi paxtachilik loyihasi yo'lga qo'yildi. Sharof Rashidov, "Qorasuv" va "Navshahar" massivlarida ajratilgan maydonlar meliorativ jihatdan yaxshilanib, yer yuzasi qamish va zararli o'tlardan tozalandi, chuqur (60 sm) chizel haydash usuli qo'llanildi.

Yer mineral o'g'itlar (har gektarga 300 kg ammosfos, 100 kg kaliy, 50 kg azot) bilan boyitilib, ekin ildizlarining chuqur qatlamga o'sishi va suvning 70–80 sm chuqurlikka singishi uchun qulay sharoit yaratildi. Natijada, avval 20–25 s/ga bo'lgan hosildorlikni 50–60 s/ga yetkazish maqsad qilinmoqda.

Tadbirkorlarning viloyatda hosilni parvarishlashdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga qamrab olgan yangi loyihani amalga oshirishi uchun o'tgan yil kuzda tumandagi Sharof Rashidov, "Qorasuv" va "Navshahar" massivlaridan hosildorligi past, sho'rlangan yer maydoni ajratib berilgan edi. Bu yerda ular eng zamonaviy agrar talablarga javob beradigan, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida paxta yetishtirishni yo'lga qo'ydi. Ilg'or innovatsion g'oyalarni joriy etib, hosildorlikni 20-25 sentnerdan 50-60 sentnerga yetkazishni mo'ljallagan tadbirkorlar yerga egalik qilgach, mavjud maydonlarning meliorativ holatini yaxshilash, sifatli shudgorlash va zararkunandalar ko'payishining oldini olishga alohida ahamiyat qaratdi. Shu maqsadda ekin maydoni atrofidagi kanallar, ariq-zovurlar loy, qamish va boshqa zararli o'tlardan tozalandi. Yerni tez va chuqur shudgorlash uchun 220 va undan yuqori ot kuchiga ega traktorlar, zamonaviy texnologik chizellardan foydalanildi. — Bu jarayonda uzoq yillardan buyon yerning "bez" qatlami bo'lib kelgan va shuning oqibatida hosildorlikni pasaytirib yuborgan qatqaloqni yanchish agrotekhnologiyasi qo'llanilib, chizel bilan 60 santimetr chuqurlikda haydaldi, — deydi MChJ agronomi A.To'rayev. — Unumdor tuproq va mineral o'g'itlar bilan boyitildi. Bir gektar ekin maydoniga 300 kilogramm ammosfos, 100 kilogramm kaliy, 50 kilogramm azot berildi. Bu ekin ildizini 50-60 santimetr yer qatlamiga yetkazib, suvning 70-80 santimetr chuqurlikka singishiga puxta zamin yaratdi. Hosildorlikni ikki barobargacha oshirdi. Bu yumushlarga xorijlik tajribali

mutaxassislar jalb etilgani ham yutuqlar omili bo‘ldi. Zamonaviy innovatsion usullar asosida paxta yetishtirish va uni qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonni o‘zlashtirishga ahd qilgan ishbilarmonlar erta bahorda 5 ming 800 gektar maydonga “Surxon-14”, “Surxon-16”, “Namangan-77”, “Iolatan-14 A 1” va “Jarqo‘rg‘on” navli chigit urug‘larini xorij tajribasi asosida bir tekis undirib oldi. — Dalalarimizda paxta qiyg‘os ochilgan, — deydi MChJ rahbari A.Norqobilov. — Har kuni o‘rtacha besh ming terimchi 180 tonnagacha paxta termoqda. Ularning unumli mehnat qilishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Endi qo‘shimcha terimchilarni jalb etib, ular sonini 12 ming nafarga yetkazishni mo‘ljallayapmiz. Buning uchun mahallalardagi kayvoni ayollarni jalb etmoqdamiz. Bunda 100 nafar ko‘ngilli hasharchini to‘plab bergan kayvonilarga o‘n kun uchun 500 ming so‘mdan mukofot puli beriladi. Terim pulini ham kunlik berib borishni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Bu bizning mashaqqatli mehnat evaziga to‘plangan xomashyoni yog‘in-sochinli kunlarga qoldirmay, qisqa kunlarda yig‘ib olishimizga imkoniyat yaratadi. Zamonaviy agroteknologiyalardan foydalanib, paxta yetishtirgan tadbirkorlar dastlabki yilda mavjud maydonlardan 17 ming 800 tonna yuqori sifatli xomashyo topshirishni rejalashtirgan edi. Endi mavsum yaku¹nigacha bu ko‘rsatkichni 20 ming tonnadan oshirish mo‘ljallanmoqda. Yig‘ib olinayotgan paxta hosili 250 dan ortiq tashish texnikasi yordamida peshma-pesh qabul punktiga yetkazib berilmoqda. Viloyatda klaster usulini qo‘llash bu yil “Angor Surxon G‘ururi” MChJda ilk sinovdan o‘tkazilmoqda. Kelgusida ular paxta yetishtirishdan tortib, to xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan yakunlanadigan to‘liq to‘qimachilik ish jarayoni siklini yaratadi. Innovatsion to‘qimachilik klasteri tashkil etilib, o‘zlari yetishtirgan paxtani qayta ishlovchi zamonaviy fabrika va zavod quriladi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari klaster tizimining mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Klaster modeli resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish, savdo-logistika tizimini takomillashtirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Mintaqaviy iqtisodiyotda klasterlarning shakllanishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi, hududning raqobatbardoshligi kuchayadi va iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyasi yuzaga keladi.

Klasterlar faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ayrim tizimli muammolar — boshqaruv mexanizmlarining markazlashganligi, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar tanqisligi va kooperatsiya madaniyatining past darajasi — tizimning to‘liq ishlashini cheklab turadi. Shu bois klaster yondashuvini amaliyotda keng joriy etish, uni zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish hamda institutsional muhitni takomillashtirish talab etiladi.

Takliflar

Klaster boshqaruvini strategik rejalashtirish asosida takomillashtirish kerak. Bunda yagona klaster koordinatsion kengashlarini tashkil etish, klaster ishtirokchilari o‘rtasida rollar va majburiyatlarning aniq taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega.

Logistika infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Sovutkichli omborlar, agroterminal markazlar, eksport logistika yo‘laklari va transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish klaster samaradorligini oshiradi.

¹ <https://daryo.uz/2018/09/26/surxondaryoda-ilk-bor-klaster-usulida-paxta-yetishtirildi/>

Klasterlararo vertikal va gorizontal kooperatsiyani kuchaytirish lozim. Qaysi hududda qanday xomashyo mavjud bo'lsa, shu asosda tarmoq bo'ylab ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Kadrlar tayyorlash tizimini klaster talablari bilan uyg'unlashtirish zarur. Agronomiya, chorvachilik, logistika, marketing va innovatsion texnologiyalar bo'yicha amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim dasturlarini kengaytirish lozim.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish kerak. Klasterlar uchun davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion grantlar, subsidiyalar va texnika yangilash dasturlari ajratilishi maqsadga muvofiq.

Eksportni qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish kerak. Mahsulot sifat sertifikatlari, xalqaro standartlar (HACCP, GlobalG.A.P) va marketing diplomatiyasini rivojlantirish klaster mahsulotlarining jahon bozoridagi mavqeini oshiradi.

Yuqoridagi takliflarni bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etish mintaqalarda iqtisodiy barqarorlikni oshirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga, aholi farovonligini yuksaltirishga hamda O'zbekistonning global iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter M. **Competitive Advantage of Nations**. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
2. Marshall A. **Principles of Economics**. – London: Macmillan, 1920. – 874 p.
3. Granberg A.G. **Osnovy regionalnoy ekonomiki**. – Moskva: GU VShE, 2012. – 495 s.
4. Glazyev S.Yu. **Strategiya ustoychivogo razvitiya ekonomiki**. – Moskva: Ekonomika, 2010. – 368 s.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”** PF-4947-son Farmon. 2017-yil 7-fevral.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Qishloq xo'jaligida klaster tizimini joriy etish choralari to'g'risida”** PQ-4239-son Qarori. 2019-yil 23-mart.
7. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi **2020–2030**. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, 2020. – 112 b.
8. Ismoilov M. **Hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda klasterlashuvning o'rni**. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021. – 214 b.
9. Jo'raqulov X., Abdullayev Sh.A. **Mintaqaviy innovatsion rivojlanishda agrosanoat klasterlari tizimi**. // Iqtisodiyot va innovatsiya. – 2022. – №4. – B. 73–82.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 2025-yil).

**YONG'OQ MEVASINI SAQLASH JARAYONIDA SIFAT KO'RSATKICHLARINI
NAZORAT QILISH USULLARI****Jo'rayev Fayzulla Ashurovich**

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti, tayanch doktorant,
texnolog0995@gmail.com

Safarov Asqarbek Asadullayevich

Toshkent davlat agrar universiteti, q.x.f.f.d (PhD), dotsent, asqar_safarov@mail.ru

Abdullayev Foziljon Tursunovich

Toshkent davlat agrar universiteti, k.f.n., dotsent,
ORCID: 0009-0006-6990-8807,

Tel: 33 199 55 95

**МЕТОДЫ КОНТРОЛЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА ПРИ ХРАНЕНИИ ПЛОДОВ
ГРЕЦКОГО ОРЕХА****Жураев Файзулла Ашурович**

Термезского государственного инженерно-агротехнологического университета, докторант,
texnolog0995@gmail.com

Сафаров Аскарбек Асадуллаевич,

Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) в области
сельского хозяйства, доцент, asqar_safarov@mail.ru

Абдуллаев Фозилжон Турсунович,

Ташкентского государственного аграрного университета, кандидат химических наук, доцент,
afaziljon@bk.ru

ORCID: 0009-0006-6990-8807

Тел.: 33 199 55 95

**METHODS FOR MONITORING QUALITY INDICATORS DURING WALNUT
STORAGE****Jorayev Fayzulla Ashurovich**

Termez State University of Engineering and Agrotechnology, basic doctoral student. Doctoral
candidate. texnolog0995@gmail.com

Safarov Asqarbek Asadullayevich,

Toshkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Agriculture, Associate
Professor, asqar_safarov@mail.ru

Abdullayev Foziljon Tursunovich,

Toshkent state agrarian university. Candidate of Chemical Sciences, Associate Professor.
afaziljon@bk.ru

ORCID: 0009-0006-6990-8807

Tel.: +998 33 199 55 95

Annotatsiya: Ushbu maqolada yong'og mevasini saqlash jarayonida uning sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish usullari yoritilgan. Maqolada grek yong'og'i mevasini saqlash jarayonida organoliptik baho berish, fizik-kimyoviy nazorat ishlarini olib borish, mikrobiologik nazorat, namlik va harorat rejimlarini nazorati ko'rib chiqilgan. Shuningdek mevani saqlash jarayonida zararkunandalar va mog'ar zamburug'i bilan zararlanishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tatqiqot natijalariga ko'ra yong'og mevasini sifatini uzoq muddat saqlash hamda iste'molchilarga xavfsiz va standartlarga mos mahsulot yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: grek yong'og'i, saqlash, organoliptik tahlil, fizik-kimyoviy nazorat, mikrobiologik xavfsizlik, namlik va harorat rejimi.

Аннотация: В данной статье освещены методы контроля показателей качества грецкого ореха в процессе хранения. Рассмотрены органолептическая оценка, физико-химический контроль, микробиологический мониторинг, а также контроль влажности и температурного режима при хранении плодов грецкого ореха. Кроме того, проанализированы мероприятия по предотвращению заражения плодов вредителями и плесневыми грибами в процессе хранения. Согласно результатам исследования, контроль качества грецкого ореха имеет важное значение для длительного сохранения его потребительских свойств и обеспечения поставки безопасной и соответствующей стандартам продукции.


Ключевые слова: грецкий орех, хранение, органолептический анализ, физико-химический контроль, микробиологическая безопасность, влажностно-температурный режим.

Abstract: This article presents methods for monitoring the quality indicators of walnut kernels during storage. It examines organoleptic evaluation, physicochemical control, microbiological monitoring, as well as humidity and temperature regulation during the storage process. The study also analyzes preventive measures against infestation by pests and mold fungi. According to the research findings, proper quality control is essential for ensuring long-term preservation of walnut quality and for delivering safe and standard-compliant products to consumers.

Keywords: walnut, storage, organoleptic analysis, physicochemical control, microbiological safety, humidity and temperature regime.

Kirish. Bugungi kunda iste'molchilarning oziq-ovqatga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Shu boisdan dunyo bozorida yong'og mevasiga bo'lgan talabning ham ortishiga sabab bo'lmoqda. Yong'og mevasi yuqori ozuqaviylik qiymati, makro va mikro elementlarga boyligi shuningdek tarkibida oqsil va yog' miqdori yuqoriligi tufayli nafaqat oziq-ovqat balki farmosevtika va kosmetikada ham keng qo'llanilmoqda. Ammo yong'og mevasida yog' miqdori yuqori bo'lganligi sababli saqlash jarayonida oksidlanish, achish va mog'arlanish belgilari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa mahsulot sifatining pasayishiga, iste'mol uchun yaroqsiz holga kelishiga va iqtisodiy zarar ortishiga olib kelishi mumkin.

Dunyo mamlakatlari bo‘yicha yetishtirilgan yong‘oq yalpi hosili miqdori (tonnada) (1)



Albatta har qanday mahsulotni saqlash va qayta ishlashdan avval uni yetishtirish texnologiyasiga jiddiy e‘tibor berish muhim ahamiyatga ega. Hususan yong‘oq mevasini yetishtirishda ko‘zlangan hosilni olish uchun organik va mineral o‘g‘itlar vaqtida, meyorida berilishi, agrobiologik va agroteknik tadbirlar olib borilishi, gullashdan oldin daraxt tanasi 10% li ohak eritmasiga 3%li temir ko‘porosi aralashtirilib oqlash ishlari amalga oshirilishi, zararkunanda va turli kasalliklarga qarshi o‘z vaqtida biologik, kimyoviy hamda agroteknik kurash chora-tadbirlarini olib borilishi muhim ahamiyatga ega. (2) Mamlakatimizda yong‘oq mevasi naviga, ob-havo sharoitiga va o‘sadigan joyiga qarab 10-sentyabrdan 10-oktyabrgacha pishib yetiladi. (3) Mevani yig‘ib olishdagi eng yaxshi usul silkitish hisoblanadi. Yig‘ib olishda tayoq yoki shunga o‘xshash boshqa jismlardan foydalanmaslik kerak chunki bu jismlar keyingi yil hosilga kiradigan shoxlarni shikastlashi mumkin. Yig‘ib olingan mevalar mashinada yoki ishchi kuchi yordamida qobig‘idan ajratiladi. Hamda ochiq joyda 15-20 sm qalinlikda yoyib quritiladi. O‘z vaqtida pishib yetilgan yong‘oq mevalarining namlik miqdorini standart bo‘yicha 5-8% gacha quritish muhim ahamiyat kasb etadi.(2)

1-jadval

Respublikamizda barcha toyifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan yong‘oq yalpi hosili miqdori (tonnada) (4)

T/r	Hududlar nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10	13	16	13	24	18	25
2	Andijon	12164	21146	22185	28392	26232	26299	24127

3	Buxoro	454	1909	2483	2532	2221	2003	2116
4	Jizzax	4436	6861	7288	7319	8644	8142	8311
5	Qashqadaryo	3852	2306	1479	1853	1185	1006	1021
6	Navoiy	1265	2175	3358	2720	2560	2073	2031
7	Namangan	6311	4847	5133	6102	6836	6316	6331
8	Samarqand	18650	6903	11757	15671	16688	15147	15194
9	Surxondaryo	12537	6605	5289	5823	5797	5798	5783
10	Sirdaryo	1148	794	1226	800	899	878	998
11	Toshkent	3338	3910	5398	6377	6529	7735	7823
12	Farg'ona	1260	2284	2121	1540	1685	1676	1383
13	Xorazm	38	5	-	-	-	16	-
Jami:		65463	59758	67733	79142	79300	77107	75143

Yong'oq ishlab chiqarish korxonalariga qabul qilingan mevalar qobig'idan ajratiladi, quritiladi, saralanadi va qadoqlanadi.

Yong'oqni quritishda energiya tejankor qurilmalar, vakuumli saqlash usullardan foydalaniladi. O'z vaqtida pishib yetilgan yong'oq mevalarida namlik miqdori standart bo'yicha 5-8% dan oshmasligi kerak. Yong'oq mevasini saqlashda xitozan biologik faol moddasi mevaning sifati va saqlanish muddatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xitozan - tabiiy polimer bo'lib, yong'oq mevasini saqlashda mikroorganizmlarning ko'payishini cheklashga yordam beradi. Shuningdek, u mevaning namligini saqlashga yordam beradi va mevaning tez qurib ketishining oldini oladi. Yong'oq mevalari maxsus omborxonalarda 0-4 °C haroratda va quruq havo holatida saqlanadi.

2-jadval

Yong'oq mevasi va uning mag'zining defect (kamchilik yoki nuqson) larining tavsifi (5)

№	Defekt(kamchilik yoki nuqson) turlari	Tavsifi
1	Singan bo'laklari	Mag'zining singan bo'laklari, ko'zi 3 mm diametrli g'alvirdan o'tganlari;
2	Po'chog'i	Po'chog'i va mag'iz orasidagi qattiq qismining butunligi;
3	Mag'izning qurishi	Yadroning hajmini kamayishi, bujmayishi, qisilishi;
4	Mog'orlash	Ko'zga kuringan mog'orlash shishlarini kuzga kuringan bo'lishligi;
5	Chirishi	Mikroorganizmlar ta'sirida buzilishi, yoqimsiz hidga ega bulishi;

6	Hasharotlar keltirib chiqaradigan shikastlanishlar.	Hasharot yoki zooparazitlar ta'sirida ko'rinib turgan shikastlanishlar, nobud bulgan hasharot yoki ularni qoldiqlarini bo'lishi;
7	Begona aralashmalar	Ushbu mahsulot tarkibiga kirmagan har qanday material yoki modda.
8	Mineral aralashmalar	Kislotada erimaydigan kul moddalar;
9	Taxirlik	Lipidlarni oksidlanishi yoki yoqimsiz ta'm beruvchi erkin yog' kislotalarini hosil bo'lishi;
10	Begona hid yoki yoqimsiz ta'm	Mahsulotga xos bo'lmagan har qanday hid yoki yoqimsiz ta'm, boshqa narsalardan yuqqan yoqimsiz ta'm.

Adabiyotlar sharhi. Emre Bakkalbaşı va boshqalarning tadqiqotlarida qadoqlash materiallari, saqlash sharoitlari va navning yong'oq oksidlanish barqarorligiga ta'siri

Yalova-1 navida yuqori tokoferol va fenolik moddalarga, past to'yinmagan yog' kislotalari miqdoriga ega bo'lib, uzoq muddatli saqlashga eng mos nav bo'lib chiqdi.

Yalova-3 esa yuqori to'yinmagan yog' kislotalari va past antioksidant darajasi tufayli tez oksidlanadigan nav sifatida tan olindi.

30 °C haroratda saqlash yong'oqlarning peroksid va geksanal miqdorini tez oshirib, 6 oydan keyin sifatning yomonlashishiga olib keldi.

20 °C yoki pastroq haroratda, vakuum ostida saqlash yong'oqlarning sifatini kamida 12 oy saqlab qolish imkonini beradi.

Qadoqlash materiallari o'rtasida kichik farq bo'lsa-da, asosiy ta'sir harorat va navga bog'liqligi aniqlangan. (6)

Yanping Ma, Chaoye Wang, Chaobin Liu, Jiawei Tan, Huiling Ma, Jin Wang larning fikriga ko'ra

Grek yong'og'ini saqlashda eng samarali shakl — qobig'i bilan saqlash.

Qobiq yong'oqni oksidlanishdan, chirishdan, rang o'zgarishidan va fenollar yo'qolishidan tabiiy himoya qiladi.

Past haroratda saqlash esa bu himoyani yanada kuchaytiradi.

Tozalangan yong'oqda sifat tez buziladi, shuning uchun u qisqa muddatli saqlash uchun mosligini aniqlashgan. (7)

Mohammedameen Majed Hameed AL-Majed; Mazin Muhammad Ibrahim AL-Zubaidylar ilmiy izlanishlarida shuni tasdiqlaydiki:

Xitosan (0.5%–1.5%) yong'oq mag'zini saqlashda juda samarali tabiiy himoya materiali bo'lib, yong'oq yog'ining oksidlanish, achish va buzilish jarayonlarini sezilarli ravishda sekinlashtiradi.

Bu usul: tabiiy, arzon, oziq-ovqat sanoatida xavfsiz qo'llaniladi. (8)

Material va uslublar. 2025-2027-yilga mo'ljallangan Yong'oq mevasini saqlash jarayonida ekologik xavfsiz tabiiy beologik faol moddalardan foydalanish texnologiyasi (Surxondaryo viloyati misolida) mavzusidagi ilmiy ishi mavzusi Toshkent davlat agrar universiteti olimlari bilan maslahatlashgan holda Termiz davlat muhandislik va agrotexnologilar universitetida olib borilmoqda. Yong'oq mevalarini saqlash jarayoni "Surxon invest" MCHJ da butun va mag'iz holatda 3 xil davlat

reyistriga kiritilgan navlarda FA-2 hamda X3 antioksidantlarining 0,1% li ikki xil eritmasida 18 xil variyandada amalga oshirilmoqda.

Natijalar va munozara. Grek yong'og'i mevasini saqlash jarayonida dastlabki natijalarga ko'ra yong'og' namligi, hidi, ta'mi o'zgarmagan, biologik faol moddalar bilan ishlov berilgan yong'og' mag'zlari biroz sarg'ish rangga kirgan lekin hidi va mazasiga ta'sir ko'rsatmagan (bir oy muddatda). Mevani saqlash davrida uning rangi, hidi, ta'mi, hamda ko'rinishi kabi ko'rsatkichlariga organoliptik baho beriladi. Mevaning namligi, kullilik miqdori, tarkibidagi yog'ning oksidlanish darajasi fizik-kimyoviy usulda nazorat ishlari olib boriladi. Meva yuzasida mikroorganizmlar mavjudligi ularning rivojlanishi mikroskop orqali hamda mikroorganizmlar uchun ozuqa muhitida o'stirib nazorat qilish mumkin. Saqlash davomida xona namligi 65-75% va harorati 10-20° C gacha rejimda saqlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Namuna namligini aniqlash. Asosiy yoki standart usuli bir xil massada maydalangan yong'og' mag'zi elektr quritish javonida 130° C haroratda 40 daqiqa davomida quritiladi.

Dastlab namuna bir xil massada maydalab olinadi so'ngra har biri 5 gr ikki namuna olinib, temir byukslarga joylanadi. Byukslar oldindan quritish javonida 105°S haroratda 1 soat davomida quritilgan, eksikatorida sovutilgan va 0,01 gr aniqlikda texnik torozida tortilgan bo'lishi kerak.

Elektr quritish javonlarida quritib namlikni aniqlashda javonni qizdirish uchun haroratni 105°S gacha ko'tarishga 30 daqiqa, 130°S ga ko'tarish uchun esa 40 daqiqa ketadi. Javonda haroratni pasaytirish o'rtacha 10°S dan oshmaydi.

SESh-3M da ish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi. Ulagichni ulanadigan holatga qo'yiladi. Shunda signal lampochkasi qizil rangda yonadi. Javon harorati 130°C li belgiga qo'yiladi, eshik ochilib, buraladigan stol uyachalariga namunachali byukslar qo'yiladi (qopqoqlari ochiq holda), shundan so'ng eshikcha yopiladi. Javon to'ldirilganidan keyin odatda harorat pasayadi, bunday bo'lishini signal lampochkasining qizil rangi ko'rsatadi. Javonda 130°C haroratga qo'yish (signal lampochksi o'chadi) vaqti belgilanadi. Quritish vaqtida termoregulyatorning to'g'ri ishlashi natijasida signal lampochkasi gohida yonadi, gohida o'chadi va shu bilan isitgichning vaqti-vaqtida ulanishi va o'chishini ko'rsatadi.

Byukslar 40 daqiqadan keyin tigel qisqichi bilan olinadi, qopqoqlari yopiladi va 10-15 daqiqaga eksikatorga sovutish uchun qo'yiladi. Javonni to'ldirish va bo'shatishda buraladigan stol shturval yordamida boshqariladi. Sovutilgandan keyin har bir namunachali byuks 0,01 aniqlikda tortiladi va quritishdan oldingi va keyingi og'irliklari farqiga qarab yo'qolgan namlik aniqlanadi. Namlik quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X = \frac{(A - a) \cdot 100}{A}$$

bu erda: X – namuna namligi, %;

A – quritgichga qo'yishdan oldingi namuna og'irligi, gr;

a - quritgandan keyingi namunacha og'irligi, gr.

Ikki parallel aniqlashdan o'rtacha arifmetik hisob olinadi va bu natija 0,01 aniqlikda ishchi daftariga yoziladi. Ikki parallel aniqlash o'rtasidagi farq 0,25% dan oshmasligi kerak.

Yong'og' mevasini namligini aniqlash eng maqbul usuli 103°C da 6 soat davomida quritish hisoblanadi.

Namunaning kul miqdorini aniqlash. Ishni bajarish uchun 5 gr dan ikkita namuna ajratib olinadi. So'ngra mo'rili laboratoriya shkafida bir xil massaga keltrilgan namuna gazli gorelka vositasida yondiriladi. Namunalar batomom yonib bo'lgach, kul sovitish kamerasida sovitiladi,

so'ngra quritish javonida birlamchi quritilib, analitik torozida 0,01 gr aniqlikkacha tortiladi. Namunaning kulliligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$K = \frac{H - H_1}{H} \times 100$$

Bu yerda: K – namunaning kullilik darajasi, %

N – namunaning yondirishdan avvalgi og'irligi, gr

N₁ – namunaning yoqilgandan keyingi (kulining) og'irligi, gr (9)

Xulosa. Ushbu ilmiy ishda aholini yil davomida yong'oq mevasiga va uning tarkidagi vitamin va minerallarga bo'lgan yillik ihtiyojini qondirish hamda mevani saqlash muddatini uzaytrish ko'zlangan. Yong'oq mevasini yil davomida saqlash jarayonida organoliptik baho berish (rangi, hidi, ta'mi, tashqi ko'rinishi) da dastlabki na'munaga nisbatan o'zgarish aniqlab boriladi. Mikrobiologik nazoratda mog'orlash va zararkunanda va mikroorganizmlar namunaga ta'sir qilshi aniqlanadi. Namlik va kul miqdori dastlabki na'munaga nisbatan o'zgarishi aniqlab boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fao.org.
2. Ёнғоқ етиштириш [Матн] : илмий нашр / «Агробанк» АТБ.- Тошкент: "ТАСВИР" нашриёт уйи, 2021. - 60 б.
3. Agro.uz. Yong'oq.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
5. Умурзаков Э.У., Пўлатов О.А., Абдуллаев К.Т. Грек ёнғоғи (*Juglans regia* L.). Монография. - Самарқанд. 2023. – 224 б.
6. Bakkalbasi, E.; Yilmaz, Ö. M.; Javidipour, I.; Artik, N. "Effects of packaging materials, storage conditions and variety on oxidative stability of shelled walnuts." LWT-Food Science and Technology, Volume 46, Issue 1, 2012, Pages 203–209.
7. Yanping Ma, Chaoye Wang, Chaobin Liu, Jiawei Tan, Huiling Ma, Jin Wang "Physiochemical Responses of the Kernel Quality, Total Phenols and Antioxidant Enzymes of Walnut in Different Forms to the Low-Temperature Storage" Foods, 2021, volume 10, Issue 4, 811
8. Mohammedameen Majed Hameed AL-Majed; Mazin Muhammad Ibrahim AL-Zubaidy "Effect of chitosan as a coating material on the chemical properties of local walnut oil" Tikrit Journal for Agricultural Sciences (TJAS) Volume 22, Issue 1, 2022, Pages 53–60.
9. Kadirova Z.X., Abdikayumov Z.L Nuriddinov B.S. Moyli ekinlari mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlov berish texnologiyasi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2014 YII. 55 bet.

UO‘K: 633.34+632.4+632.9

**Fuzarioz kasalligi
qo‘zg‘atuvchi
turlarining o‘shiga
fungitsidlarning ta’siri****Toshmetova Feruza Nasirulloevna**
Laboratoriya mudiri,
*Qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa
doktori*Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot
instituti. Qarshi ShE-mail: feruz.toshmetova@mail.ru

Tel: +998 90 722-09-40.

ORCID: 0009-0007-2258-0383

Annotatsiya; Hozirgi kunda soya donini yetishtirishda soyaning fuzarioz (*Fusarium L*) kasalligi don hosildorligining 30-60% gacha yo‘qotilishiga va donning oqsil va yog‘lilik darajasiga jiddiy zarar keltirmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda eng avvalo kasallikni keltirib chiqaradigan zamburug‘ning mintaqamizga xos bo‘lgan biologiyasini to‘liq o‘rganish va ularga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqish uchun ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada soyaning fuzarioz kasalligining *Fusarium solani*, *F.oxysporum* turlarini tuproqda uchrashi hamda laboratoriya sharoitida fungitsidlarning zamburug‘ mitseliysining o‘shini ingibirlash ko‘rsatkichi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: soya, zamburug‘, *Fusarium solani*, *F.oxysporum*, mitseliy, ozuqa muhiti, tajriba, variant, preparat.

Аннотация; В настоящее время при возделывании сои фузариозное увядание сои (*Fusarium L*) приводит к потере урожая зерна на 30–60 % и серьезному снижению содержания белка и жира в зерне. При решении этих задач важно, прежде всего, проведение научных исследований для всестороннего изучения биологии болезнетворных грибов, специфичных для нашего региона, и разработки эффективных методов борьбы с ними. В данном статье описывается распространение в почве видов *Фусариум солани* и *Ф. охйспорум*, вызывающих фузариозное увядание сои, а также ингибирование роста митселия грибов фунгитсидами в лабораторных условиях.

Ключевые слова: соя, гриб, *Фусариум солани*, *Ф.охйспорум*, митселий, питательная среда, опыт, вариант, препарат

Abstract: *Fusarium wilt* (*Fusarium L.*) currently causes 30–60% grain yield losses and a significant reduction in protein and fat content in soybeans. To address these issues, it is crucial to conduct research to comprehensively understand the biology of pathogenic fungi specific to our region and develop effective control methods. This article describes the spread of *Fusarium solani* and *F. ochysporum* species in soil, which cause *Fusarium wilt* in soybeans, as well as the inhibition of mycelial growth by fungisides under laboratory conditions.

Keywords: soybeans, mushrooms, *Fusarium solani*, *F. oxysporum*, mycelium, nutrient medium, experiment, variant, preparation

Material va uslublar. Fungitsidlarning fuzarioz kasalligini qo‘zg‘atuvchi zamburug‘ turlarining o‘shisi, rivojlanishi va fitotoksin hosil qilish xususiyatiga ta’sirini o‘rganish uchun preparatlar suyuq va agarli Chapek ozuqa muhiti tarkibiga qo‘shildi. Nazorat uchun fungitsidsiz Chapek ozuqa muhitidan foydalanildi.

Tajribadagi fungitsidlar ozuqa muhiti tarkibiga 0,04; 0,05; 0,06; 0,2; 0,3; 0,4 ml/l miqdorda aralashtirilib zamburug'lar ta'siri o'rganildi. Fungitsidlarni zamburug'lar o'sishiga ta'siri miqdori agarli ozuqa muhitda o'sgan zamburug' koloniyalarining diametrlarini o'lchash orqali aniqlandi. Fuzarioz (*Fusarium solani*). *Fusarium* zamburug'i keng ixtisoslashgan juda zararli zamburug'dir. Ascomycota sinfi, Tuburculariales tartibi, Elegans bo'limi, Nectriaceae oilasining *Fusarium* turkumiga mansub takomillashgan zamburug'lar turiga mansub.

F.solani - ushbu tur boshqa turlar singari oq va mayin koloniyalar hosil qildi. Biroq, ko'pchilik *Fusarium* turlari kabi markazida pushti yoki binafsha rangli dog'lar o'rniga, ko'k-yashil yoki ko'k-jigarrang dog'lar hosil bo'ldi. Ostki tomondan esa ular rangpar, och jigarrang yoki qizil jigarrang tusda bo'lishi mumkin. *F.solani* mayda g'uj, bo'sh, shilimshiq koloniyalar hosil qildi. *F. solani* ozuqada o'stirilganda koloniyalari 7 kun ichida diametri 64-70 mm yetdi.

Belgilari: Fuzarioz zamburug'ining mitseliysi yaxshi rivojlangan, paxmoq, o'rgimchak to'rsimon, oq-pushti, och qaymoqrang, oq, qizil, somonrang, kulrang, binafsharang, siyohrang va jigarrang. Konidiyaforalari aniq belgilangan, sodda yoki shoxlanib ketgan. Morfologik elementlaridan quyidagilar: makrokonidiya, mikrokonidiya, xlamidosporalar, pionnot, sporoxidiya va sklerosiylar alohida ajralib turadi.

Zarari: Fuzariozning manbai infeksiyalangan urug'lar, tuproq va o'simlik qoldiqlari hisoblanadi. Fuzarioz tufayli hosil 20-30% ga, urug' unuvchanligining yo'qotilishi 32-40% ga yetdi. Ildiz chirishning eng maksimal darajasi tuproq namligi 70% bo'lganda sodir bo'ldi. Kasallik quruq va issiq havoda rivojlanadi. O'simlik jiddiy shikastlanganda donning vazni 55-77% ga kamayishi mumkin.

Kirish: Dunyoda soyaning zamburug' kasalliklaridan fuzarioz birinchi marta nemis olimi H.F.Link (1809) tomonidan o'rganilgan va urchuq yoki o'roq shaklli, rangsiz konidiyalardan tashkil topgan zamburug'lar *Fusarium* turkumiga birlashtirilgan. Bundan tashqari, *Fusarium* turkumi vakillarini o'rganishda rus olimlari A.I.Rayllo (1950), M.Dementeva (1977), N.M.Podoplichko (1977), J.G.Prostakova (1983) va Ukraina olimasi V.I.Bilaylarning (1982) xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. *Fusarium* turidagi zamburug'lar keng tarqalgan fakultativ parazitlardir, ko'payish usullari tufayli juda o'zgaruvchan hisoblanadi [1]. Chjan szyuymey ma'lumotiga ko'ra, turli mamlakatlarda kasalliklardan soya hosildorligining umumiy yo'qotilishi kamida 20-30% ni tashkil qiladi, asosan fuzarioz ildiz chirish ko'proq uchrab ekinlarning "asr kasalligi" hisoblanadi va hosilni 10-12% hattoki 40% gacha kamaytiradi [2]. O'simliklarni kasalliklardan himoya qilishda ko'pchilik hollarda kimyoviy usullar eng katta samaradorlikka egadir va ularni qo'llamasdan biror-bir ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi [3]. Kasallik qanchalik erta aniqlansa, unga qarshi kurash shunchalik samarali bo'ladi. Pestitsidlarni tanlashda, tizimli (himoya va davolovchi) ta'sirga ega preparatlarga e'tiborni qaratish kerak, chunki bunday preparatlar nafaqat tashqi, balki ichki urug' infeksiyasini ham yo'q qiladi. Respublikamizda *Fusarium* zamburug'larining nisbatan zaif o'rganilishiga asosiy sabablardan biri uning morfologik xususiyatlarining tez o'zgaruvchanligi va turlarini aniqlashning g'oyat qiyinligidir [4].

Natijalar va munozara. Tadqiqotlar 2021-2023 yillar davomida soyaning fuzarioz kasalligiga qarshi kimyoviy kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha kimyoviy preparatlarning samaradorligini laboratoriya sharoitida sinab ko'rildi. O'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi zararli organizmlarning ekin maydonida rivojlanishiga qarshi zamonaviy fungitsidlar yordamida kurash olib borish hamda, soyaning fuzarioz kasalligiga qarshi samarali preparatlarni tanlash va ularni qo'llash me'yorlarini aniqlash maqsadida laboratoriya sharoitida in vitro usulidan foydalanilgan holda,

fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'larga nisbatan kimyoviy urug'dorilagichlardan Daltebu FS 6% s.e.sus (andoza), Sunvaks, Tebikur FS 060, Oplot hamda Maksim XL 035 FS fungitsidlarning ta'siri o'rganildi. Petri likobchalarida turli xil me'yorlar qo'llanilgan ozuqa muhitlarining o'rta qismiga soya o'simligining fuzarioz qo'zg'atuvchilari *F.oxysporum* va *F.solani* zamburug'lari ekildi, har bir fungitsidning ta'sir darajasi qayd qilib borildi.

1-jadval.

Fungitsidlarning fuzarioz kasalligi qo'zg'atuvchi turlarining o'sishini ingibirlash ko'rsatkichi

№	Variantlar		Mitseliyni o'sish diametri, mm		O'sishni ingibirlash ko'rsatkichi, %		Mitseliyni o'sish diametri, mm		O'sishni ingibirlash ko'rsatkichi, %	
	Pereparatlar nomi	Sarfl me' yori, l/t	Variantlar	O'rtacha	Variantlar	O'rtacha	Variantlar	O'rtacha	Variantlar	O'rtacha
			Fusarium solani				Fusarium oxysporum			
1	Daltebu FS 6% s.e.sus (andoza)	0,04	4,7	4,9	38,96	36,8	4,2	4,5	38,24	33,8
2		0,05	5,6		27,27		5,1		25,00	
3		0,06	4,3		44,16		4,2		38,24	
4	Sunvaks 200 FF s.e.sus	0,2	3,5	2	54,55	74,0	2,8	2,1	58,82	69,6
5		0,3	0,8		89,61		1,8		73,53	
6		0,4	1,7		77,92		1,6		76,47	
7	Tebikur FS 060 s.e.sus.	0,04	0,9	1,8	88,31	76,6	0,6	1,8	91,18	73,0
8		0,05	1,8		76,62		2,7		60,29	
9		0,06	2,7		64,94		2,2		67,65	
10	Oplot VSK s.k.	0,04	0,3	0,3	96,10	95,5	0,6	0,48	91,18	92,9
11		0,05	0,03		99,61		0,04		99,41	
12		0,06	0,7		90,91		0,8		88,24	
13	Maksim XL 035 FS	0,125	0,3	0,2	96,10	97,7	0,5	0,41	92,65	94,0
14		0,15	0,2		97,40		0,7		89,71	
15		0,175	0,02		99,74		0,03		99,56	
16	Nazorat (dorilanmagan)	-	7,7	-	-	-	6,8	-	-	-

Ushbu urug'dorilagich fungitsidlar soyani zararlovchi *Fusarium* turkumi turlariga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi. Nazorat variantida *F.solani* mitseliysi 7,7 mm gacha, *F.oxysporum* zamburug'i mitseliysi 6,8 mm gacha o'sganligi aniqlangan bo'lsa, Oplot preparatida *F.solani* mitseliysi o'rtacha 0,3 mm gacha o'sganligi, o'sishni ingibirlash ko'rsatkichi 95,5%, *F.oxysporum* mitseliysi o'rtacha 0,5 mm, o'sishni ingibirlash ko'rsatkichi 92,9%, Maksim XL 035 FS preparatida



F.solani mitseliysi o'rtacha o'rtacha 0,2 mm, o'sishni ingibirlash ko'rsatkichi 97,7%, F.oxysporum mitseliysi o'rtacha 0,4 mm, o'sishni ingibirlash ko'rsatkichi 94,0% gacha bo'lganligi tahlillarimiz davomida aniqlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tajribalarni olib borishda tajriba ob'ektlari uchun navlar, tajriba predmetlari uchun kasalliklarga qarshi kurash vositalari to'g'ri tanlab olish uchun dastlab laboratoriya sharoitida fungitsidlarning me'yorlari to'g'ri tanlab olindi. Shuningdek zamburug'larning turlarini aniqlash va tajribani olib borish, kimyoviy kurashning biologik va iqtisodiy samaradorligini aniqlashda umume'tirof etilgan uslublardan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Borodin S.G., Kotlyarova I.A., Biologicheskie osobennosti gribov roda Fusarium Link na soe i podsolnechnike // R.: "Masличные культуры" 2005 g. Выр-2 (133). – S. 58-61.
2. Chjan szyuymey Biologo-toksikologicheskoe obosnovanie ispolzovaniya ximicheskix veshchestv dlya zashchity soi ot kornevoy gnili / Diss. Avtoreferat 1998 g. – S-8-9.
3. Ayupov R.X. Kimyoviy usullar // O'simliklar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash T.: 2007 y. – B. 92-93.
4. Pattaev A.A., Fusarium oxysporum F.SP.Vasinfestum turkumi zamburug' metabolitlari sintezi // T.: J. "Agrokimyo himoya va o'simliklar karantini". 2021 y. – B. 125.

ҚИШЛОҚ ХУДУДЛАРИНИ АНИҚЛАШ МЕЗОНЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Назарова Феруза Усмоновна,
TMC institute, “Иқтисодиёт, молия ва бухгалтерия ҳисоби”
кафедраси катта ўқитувчиси
feruzanu@mail.u

Мазкур мақола қишлоқ ҳудудларини аниқлаш мезонларининг қиёсий таҳлиliga бағишланган. Мақолада қишлоқ ҳудудларини аниқлашга бўлган турли ёндошувлар, қишлоқ ҳудудларининг ривожланиши билан ушбу ёндошувларнинг тадрижий ўзгариши жараёнларни кўриб чиқилган, ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг замонавий босқичида қишлоқ ҳудудларини аниқлаш мезонларига ўзгартиришлар киритиш зарурияти асосланган.

Таянч сўзлар: қишлоқ ҳудудлари, барқарор ривожланиш, қишлоқ ҳудудларини аниқлаш мезонлари, маъмурий ёндашув, демографик ёндашув, иқтисодий ёндашув, ҳудудий ёндашув, ландшафт ёндашув, комбинацион ёндашув, аҳоли зичлиги.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КРИТЕРИЙ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СЕЛЬСКИХ РАЙОНОВ

Данная статья посвящена сравнительному анализу критериев определения сельской местности. В статье рассматриваются различные подходы к определению сельских территорий, эволюционные изменения этих подходов по мере развития сельских территорий, а также необходимость внесения изменений в критерии определения сельских территорий на современном этапе социально-экономического развития.

Ключевые слова: сельские территории, устойчивое развитие, критерии определения сельских территорий, административный подход, демографический подход, экономический подход, территориальный подход, ландшафтный подход, комбинированный подход, плотность населения.

COMPARATIVE ANALYSIS OF RURAL AREAS DETERMINATION CRITERIA

This article is devoted to the comparative analysis of criteria for determining rural areas. The article examines different approaches to defining rural areas, the processes of gradual change of these approaches with the development of rural areas, and the need to make changes to the criteria for defining rural areas at the modern stage of socio-economic development.

Key words: rural areas, sustainable development, criteria for defining rural areas, administrative approach, demographic approach, economic approach, territorial approach, landscape approach, combined approach, population density.

Кириш

Тадқиқот мавзусининг долзарблиги. Қишлоқ ҳудудлари улкан иқтисодий, табиий, демографик, экологик ва илмий-маданий салоҳиятга эга бўлиб, Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим ўрин тутди. Шу муносабат билан қишлоқ ҳудудларини барқарор ривожлантириш, бу ерда мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланиш республикамиз ҳукумати иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан ҳисобланади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги №5853-сон фармонида қишлоқ ҳудудларини барқарор ривожлантиришга алоҳида урғу берилган¹.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий таҳлил, гуруҳлаш каби усуллардан фойдаланилди.

Илмий муаммонинг қўйилиши

Тадқиқот мақсади қишлоқ ҳудудларини аниқлаш мезонларини қиёсий таҳлил қилиш асосида Ўзбекистонда қишлоқ ҳудудларини аниқлашга бўлган ёндошувни такомиллаштиришга қаратилган таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

Илмий моҳияти. Қишлоқ ҳудудларининг барқарор ривожланишини таъминлашда унинг дастурий-услубий жиҳатлари муҳим роль ўйнайди. Бунда уларнинг миқдорий мезонларни аниқлаб олиш илмий ва амалий жиҳатдан катта аҳамиятга эга. Зеро, қишлоқ ҳудудларини фақат қишлоқ хўжалиги фаолияти ва у билан боғлиқ турмуш тарзи билан тавсифлаш мақсадга мувофиқ эмас.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда қишлоқ районлари ривожланиши жиддий ўзгаришларга юз тутди. Гарчи иқтисодий адабиётда қишлоқда юз берган ўзгаришлар детерминантлари тўғрисида ягона фикр бўлмаса-да, икки йўналишни алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин²:


- иқтисодий, ижтимоий ва экологик пасайиш;
- қишлоқ ҳудудларининг эндоген динамикаси туфайли уларнинг қайта тикланиши.

Бу икки йўналиш қишлоқ ҳудудларидаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар зиддиятли эканлигидан далолат беради. Иқтисодий ва демографик маълумотлар таҳлиliga кўра, 1990-йиллардан бошлаб жаҳоннинг кўплаб мамлакатлари қишлоқ хўжалигида ҳам иқтисодий, ҳам демографик нуқтаи назардан пасайиш кузатилди³. Айни вақтда қишлоқ хўжалигининг ЯИМ ва бандликдаги улуши пасайди, қишлоқ районларидан кўплаб аҳоли кўчиб кета бошлади, фермерларнинг қишлоқ аҳолисидаги улуши камайди.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” №5853-сон фармони <https://lex.uz/docs/4567334>

²Chevalier P., Dedeire M., Ghiotti S., Hirczak M. and Razafimahefa L. (2010). L’espace rural euro-mediterraneen: approches methodologique et typologique. Cahiers de geographie du Quebec, vol. 54, n. 152, p. 291-312.

³Plieninger T., Draux H., Fagerholm N., Bieling C., Bьrgi M., Kizos T., Kuemmerle T., Primdahl J. and Verburg P.H. (2016). The driving forces of landscape change in Europe: A systematic review of the evidence. Land Use Policy. 57: p.204-214



1-расм. Қишлоқ ҳудудларини аниқлаш мезонларига ёндашувлар таснифи⁴

1990-йилларнинг ўрталаридан бошлаб ривожланган мамлакатларда бу ҳолатга тескари тенденция кузатила бошланди ва бу ғарб иқтисодий адабиётида “қишлоқ ҳудудларининг қайта тувилиши” номини олди: биринчидан, қишлоқ районлари иқтисодиётида диверсификация ҳолати кузатила бошланди ва бу, энг аввало, иқтисодиёт учламчи сектори (хизмат кўрсатиш ва туризм)нинг ўсишида акс этди, иккинчидан, янги аҳоли, хусусан, ёшларнинг кўчиб келиши эвазига қишлоқ аҳолисининг сони ўсди⁵. Шу муносабат билан қишлоқ ҳудудларининг янги тавсифларини аниқлаш, шунингдек, бу ҳудудлар қандай таснифланишини белгилаб олиш учун қатор ёндашувлар қабул қилинди. Бу даврда қишлоқ ҳудудлари моҳиятини дихотомик, яъни шаҳар муҳитига қарама-қарши қўйиш асосида ёритиш устувор ўринга эга бўлди. Бошқача қилиб айтганда, нима шаҳарники бўлмаса, у қишлоқники⁶, деган қараш асосий ўринга чиқди. Дастлаб қишлоқ ва шаҳар ўртасидаги тафовут битта мезонга асосланди (масалан, аҳоли зичлиги, қишлоқ хўжалигининг мавжудлиги ва бошқалар). Кейинчалик уни моҳиятини ёритиб беришда бир нечта мезонларни ўзида акс эттирувчи ёндашувлар қабул қилинди⁷.

Иқтисодий адабиётда келтирилган қишлоқ ҳудудларини аниқлаш мезонларини умумлаштириш унга бўлган 6 та ёндашувни ажратиб кўрсатиш имкониятини беради (1-расм).

⁴ Турли тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан умумлаштирилди.

⁵ Framework providing definitions, review and operational typology of rural areas in Europe /www.rural-interfaces.eu

⁶ Depraz S. (2007). Quelle methode d'analyse pour le rural centre-europeen? In: Maurel M.-C., Lacquement G. Agriculture et ruralite en Europe centrale. Paris: Aux lieux d'etre. p. 19-35. / <https://halshs.archives-ouvertes.fr/halshs-01547480>

⁷ Framework providing definitions, review and operational typology of rural areas in Europe /www.rural-interfaces.eu

Маъмурий ёндашув. Маъмурий ёндашув асосан Шарқий Европа мамлакатларида⁸ ва айрим МДХ мамлакатларида қўлланилади. Масалан, Польшада қишлоқ ҳудудлари шаҳарларнинг маъмурий чегарасидан ташқаридаги ҳудудлар сифатида аниқланади⁹.

Польшалик олимлар Бански ва Мазур фикрига кўра, бундай ёндашувнинг ўзига хос камчиликлари мавжуд. Хусусан, бундай ёндашувда баъзан функционал, ландшафт ва таркибий нуктаи назаридан кўпроқ шаҳар хусусиятларини ўзида акс эттирган йирик шаҳар агломерацияларига йўлдош ҳудудлар қишлоқ ҳудудлари сифатида таснифланса, қўшни қишлоқ ҳудудлари билан зич функционал муносабатларда бўлган ва қишлоқ хусусиятлари (масалан, аҳоли зичлиги ва қурилиш зичлиги паст, қишлоқ хўжалигида банд бўлган аҳоли ва қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар улуши юқори) устувор ўринга эга кичик шаҳарлар кўпроқ қишлоқ ҳудудлари талабларига кўпроқ мувофиқ келишига қарамасдан шаҳар ҳудудлари саналади.

Демографик ёндашув. Демографик ёндашувда одатда иккита мезондан фойдаланилади: ҳудуд ҳажми ва аҳоли зичлиги. Масалан, Францияда INSEE (миллий статистика институти) муниципалитетларни шаҳар (2000 дан ортиқ аҳоли яшовчи шаҳар ҳудуди) ва қишлоқ (аҳоли сони 2000 кишидан кам шаҳар бўлмаган ҳудуд) ҳудудлари сифатида таснифлаштириш учун аҳоли сонидан фойдаланади. Қабул қилинган чегара кўрсаткичи мамлакатлар бўйича бири-биридан фарқ қилади. Масалан, Бельгияда бу кўрсаткич 5000 кишини, Испанияда 10000 кишини ташкил этади¹⁰.

Португалия, Нидерландия ва Скандинавиянинг баъзи мамлакатларида қишлоқ ҳудудларини аниқлашда аҳоли зичлиги мезонидан фойдаланилади¹¹. Бу мезон турли мамлакатлар ҳажмининг турлича эканлиги туфайли келиб чиқадиган номутаносибликни олдини олиш нуктаи назаридан мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

ИРХТ мамлакатларида қишлоқ ҳудудларини белгилаб берувчи чегара кўрсаткичи сифатида аҳоли зичлигидан келиб чиққан ҳолда уч турдаги ҳудудни аниқлаш учун 1 кв.га 150 киши бўлган ҳудудлар (Япония ва Корея учун 500 киши км.кв.) қабул қилинган¹²:

- аҳолисининг 85 фоизидан кўпроғи зичлиги 1 кв кмга 150 кишидан ортиқ муниципалитетларда истиқомат қиладиган ҳудудлар шаҳар минтақаси;
- аҳолисининг 50 фоиздан 85 фоизгачаси зичлиги 1 кв. кмга 150 кишидан ортиқ муниципалитетларда истиқомат қиладиган ҳудудлар ярим қишлоқ минтақаси;
- 50 фоиздан кам аҳолиси зичлиги 1 кв. кмга 150 кишидан ортиқ муниципалитетларда яшайдиган ҳудудлар қишлоқ ҳудудлари.

Серрано фикрига кўра, демографик ёндашув асосан ЕИда миллий институциоанал даражада ёки алоҳида, ёки бошқа ёндашувлар билан биргаликда қўлланилади. Гарчи

⁸ Depraz S. (2007). Quelle methode d'analyse pour le rural centre-europeen? In: Maurel M.-C., Lacquement G. Agriculture et ruralite en Europe centrale. Paris: Aux lieux d'etre. p. 19-35. / <https://halshs.archives-ouvertes.fr/halshs-01547480>

⁹Bański J. and Mazur M. (2016). Classification of rural areas in Poland as an instrument of territorial policy. Land Use Policy. 54: 1-17.

¹⁰ Chevalier P., Dedeire M., Ghiotti S., Hirczak M. and Razafimahefa L. (2010). L'espace rural euro-mediterraneen: approches methodologique et typologique. Cahiers de geographie du Quebec, vol. 54, n. 152, p. 291-312.

¹¹ Depraz S. (2007). Quelle methode d'analyse pour le rural centre-europeen? In: Maurel M.-C., Lacquement G. Agriculture et ruralite en Europe centrale. Paris: Aux lieux d'etre. p. 19-35. / <https://halshs.archives-ouvertes.fr/halshs-01547480>

¹² Serrano, J. (2014). Approches de la ruralite dans trois pays europeens (France, Suisse, Pays-Bas). In: Larrue C. Le regime institutionnel d'une nouvelle ruralite. Analyses a partir des cas de la France, des Pays-Bas et de la Suisse. Bruxelles: P.I.E. Peter Lang. p. 25-59.

статистик нуқтаи назардан ишончли бўлса-да, бу ёндашувда ҳар бир мамлакатда ишлатиладиган чегара қийматлари масаласи охирига етказилмаган¹³.

Худудий ёндашув. Худудий ёндашув қишлоқ жойларини шаҳар ёки шаҳар таъсирига нисбатан аниқлашни ифодалайди¹⁴. Бу ёндашувда асосий мезонлар шаҳар марказигача бўлган масофа ёки аҳолининг ҳар кунлик иш жойига бориб келиши саналади. Шаҳаргача бўлган масофа қишлоқ аҳолисининг кенг қўламли хизматлар ва имкониятлардан фойдаланиш кўрсаткичини тавсифлаш учун ҳам қўлланилади¹⁵. Ушбу мезонлардан фойдаланиш асосида аниқланган қишлоқ ҳудудлари тоифалари қишлоқ ҳудудларининг шаҳарлар билан интеграциялашганлиги ёки изоляциялашганлиги даражасини ўзида акс эттиради.

Иқтисодий ёндашув қишлоқ ҳудудларини иқтисодий фаолият турига (ихтисослаштирилган ёки диверсификациялашган қишлоқ хўжалиги фаолияти), хусусан, ушбу фаолият турларининг кластерлашганлик ёки тарқалганлик даражасига мувофиқ аниқлайди. Иқтисодий ёндашувга кўра, қишлоқ ҳудудларини тавсифлаш ёки ялпи ички маҳсулотда қишлоқ хўжалигининг улуши, аҳоли жон бошига тўғри келадиган ўртача даромад ва хизматлар (соғлиқни сақлаш ва таълим) қиймати каби мезонларга ёки ҳудудий иқтисодиёт тамойилларига асосланган назарий моделни қўллашга асосланади.

Бланк томонидан амалга оширилган таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, қишлоқ ҳудудларининг мақоми фойдаланилаётган моделга боғлиқ¹⁶. У учта ёндашувни алоҳида ажратиб кўрсатади: макон ёндашуви, ҳудудий ёндашув ва конструктивистик ёндашув.

Макон ёндашуви иқтисодий субъектларнинг ресурслардан фойдаланиш имкониятлари, масофа ва транспорт харажатлари нуқтаи назаридан жойлашувини назарда тутаяди. Бу эса миқёс ҳисобига самара эвазига иқтисодга эришиш учун фаолият турлари ва хизматларнинг кластерлашишига олиб келади. Айни вақтда концентрацияга олиб келмайдиган фаолият турлари тарқалиб кетаяди. Бу жараён концентрация даражасидан келиб чиққан ҳолда ўз марказлари ва периферияларига эга кўп босқичли тизимни вужудга келтиради. Фаолиятнинг периферияли турлари интенсив бўлмайди ва асосан табиий ресурслардан фойдаланади, ишчи кучи паст малакали ва диверсификациялашмаган бўлади. Мазкур ёндашув қишлоқ ҳудудларини кластерлашиш жараёнидан ташқарида ва шу сабабли периферия ҳудудлари сифатида аниқлайди.

Ҳудудий ёндашув иқтисодий агентлар ва иқтисодий самарадорлик ҳамда ресурсларнинг янгиланиши омиллари ўртасидаги муносабатларга асосланган. Бундай ёндашувда қишлоқ ҳудудлари ҳам аниқ ресурс, ҳам эндоген ривожланиш учун салоҳият сифатида аниқланади. Ҳудудий ёндашув транснационал (ЕИ, ИРХТ) институционал даражада кенг тарқалган. “Шаҳар ҳудудлари билан чамбарчас боғлиқликдаги минтақавий ўзаро ҳамкорлик концепцияси” сифатида аниқланадиган қишлоқ ҳудудлари Европа Иттифоқи минтақавий сиёсатининг энг асосий концепцияси ҳисобланади¹⁷. Бу ёндашув ИРХТ, ESPON ва

¹³Serrano, J. (2014). Approches de la ruralite dans trois pays europeens (France, Suisse, Pays-Bas). In: Larrue C. Le regime institutionnel d’une nouvelle ruralite. Analyses a partir des cas de la France, des Pays-Bas et de la Suisse. Bruxelles: P.I.E. Peter Lang. p. 25-59.

¹⁴Bański J. and Mazur M. (2016). Classification of rural areas in Poland as an instrument of territorial policy. Land Use Policy. 54: 1-17.

¹⁵Dijkstra L. and Poelman H. (2008). Remote rural regions: how proximity to a city influences the performance of rural regions. Brussels : European Union. p.8. (Regional Focus, n. 1/2008)

¹⁶Blanc M. (1997). La ruralite : diversite des approches. Economie rurale, n.24 – p:5-12

¹⁷Rural Development Programmes 2014-2020 //http://ec.europa.eu/agriculture/rural-development-2014-2020/country-files/common/rdp-list_en.pdf

EUROSTAT типологиясида ҳам ишлатилади. Масалан, Франциянинг статистика институти (INSEE) томонидан 1999 йилда ишлаб чиқилган ва 2010 йилда ўзгартирилган типология иш ўринлари ва қишлоқ муниципалитетларида яшовчи аҳолининг шаҳар марказларидаги иш ўринларига жалб этилиши сонига асосланади.

Конструктивистик ёндашув қишлоқда яшовчиларнинг идрокларига асосланади. Хусусан, фермерлар қишлоқ ҳудудларига иш муҳити ва ресурс сифатида қарасалар, бошқа яшовчилар учун у ландшафт ва уларнинг ҳаёт сифати элементи ҳисобланади. Бошқача қилиб айтганда, қишлоқ жойлари улар учун турли аҳамиятга эга.

Ландшафт ёндашуви. Сўнгги йилларда қишлоқ ҳудудлари ва уларнинг ижтимоий талабини идрок этишнинг экологик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратилмоқда¹⁸. Бу эса тадқиқотчиларни қишлоқ ҳудудларини аниқлашнинг янги ёндашувларини ишлаб чиқишга ундамоқда. Хусусан, экологик география соҳасида ландшафт ва ижтимоий-экологик ёндашувлар вужудга келди. Бу ёндашувларда типик ландшафтларни ажратиб кўрсатиш учун тупроқ қатлами ва иқлим шароитлари тўғрисидаги маълумотлардан фойдаланилади¹⁹. Масалан, мазкур ёндашувда асосий мезонлар сифатида қурилган биноларнинг зичлиги, урбанизация даражаси, қурилиш майдонининг узлуксизлиги ва ўрмонлар улушидан фойдаланилади.

Таъкидлаш лозимки, бу мезонлар баъзан қишлоқ ҳудудлари таърифига аниқлик киритиш учун демографик ёндашувда ҳам қўлланилади²⁰. Масалан, Нидерландияда қишлоқ ҳудудлари турли ландшафт мезонлари бўйича аниқланади ва бу мезонлар орасида 1 км радиусдаги қурилиш биноларининг зичлиги асосий ўринни эгаллайди²¹.

Комбинациялашган ёндашув. Комбинациялашган ёндашув юқорида баён қилинган ҳудудий ва иқтисодий²², ҳудудий ва ландшафт²³ ёндашувларида қўлланиладиган мезонларни бир-бирига боғлайди.

Хулоса ва таклифлар

“Қишлоқ ҳудудлари”нинг миқдорий мезонлари бўйича амалга оширилган тадқиқотлар натижаларини умумлаштириш шундан далолат берадики, қишлоқ ҳудудларининг мезонлари муайян йўналишда тадрижий ривожланиб келмоқда. Шу муносабат билан мамлакатимизда ҳам қишлоқ ҳудудларининг ривожланиш хусусиятлари, тенденциялари ва функцияларини

¹⁸ Bański J. and Mazur M. (2016). Classification of rural areas in Poland as an instrument of territorial policy. Land Use Policy, 54: 1-17.

¹⁹ Van Eupen M., Metzger M.J., Pirez-Soba M., Verburg P.H., van Doorn A. and Bunce R.G.H. (2012). A rural typology for strategic European policies. Land Use Policy, 2012/07/01, vol. 29, n. 3, p. 473-482. <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264837711000846>

²⁰ Serrano, J. (2014). Approches de la ruralite dans trois pays europeens (France, Suisse, Pays-Bas). In: Larrue C. Le regime institutionnel d'une nouvelle ruralite. Analyses a partir des cas de la France, des Pays-Bas et de la Suisse. Bruxelles: P.I.E. Peter Lang. p. 25-59.; Bontron, J.C. (2015). La dimension statistique de la ruralite : une maniere de lire les representations et les evolutions du rural. Pour, vol. 228, n. 4, p. 57-67.

²¹ Serrano, J. (2014). Approches de la ruralite dans trois pays europeens (France, Suisse, Pays-Bas). In: Larrue C. Le regime institutionnel d'une nouvelle ruralite. Analyses a partir des cas de la France, des Pays-Bas et de la Suisse. Bruxelles: P.I.E. Peter Lang. p. 25-59.

²² Copus A.K. and Noguera J. (2010). A Typology of Intermediate and Predominantly Rural NUTS 3 Regions. Bruxelles: European Union. p.51.

²³ Berchoux T., Watmough G.R., Hutton C.W. and Atkinson P.M. (2019). Agricultural shocks and drivers of livelihood precariousness across rural communities. Landscape and Urban Planning. 189: 307-319.; Dijkstra L., Poelman H. (2018). Regional typologies overview. Brussels: European Union. [Consulté en novembre 2019]. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Regional_typologies_overview#Urban-rural_typology_including_remoteness

хисобга олган ҳолда уларга ягона замонавий таъриф бериш, ривожланган мамлакатлар тажрибаси асосида уларнинг микдорий мезонларини ишлаб чиқиш лозим. Бунда энг аввало, шуни назарда тутиш лозимки, бугунги кунда қишлоқ хўжалиги қишлоқ аҳолисининг ягона бандлик манбаси эмас. Қишлоқда яшовчилар ҳаётида хизмат кўрсатиш, савдо, тадбиркорлик, фойдали қазилмалар қазиб олиш билан боғлиқ фаолият турлари катта аҳамият касб этмоқда. Қишлоқ жойларда туризмнинг турли шакллари ривожлантириш долзарб йўналишлардан бирига айланмоқда. Бу фаолият турлари қишлоқ аҳолисига барқарор даромад олиб келмоқда, уларнинг ҳаёт фаолияти ва ривожланишини таъминламоқда.

Шу билан бирга сўнгги йилларда атроф-муҳит ва экология билан боғлиқ масалалар тобора долзарб тус олиб, қишлоқ ҳудудларини ривожлантиришда ушбу омилнинг роли ортмоқда. Ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг замонавий босқичида қишлоқ ҳудудлари томонидан бажариладиган функция ва вазифалар ҳам ўзгармоқда.

Шу муносабат билан бугунги кунда қишлоқ ҳудудларига фақат ишлаб чиқаришнинг ихтисослашуви ва озиқ-овқат таъминоти нуктаи назаридан қараш мақсадга мувофиқ эмас. Бунда замонавий шароитда қишлоқ ҳудудлари томонидан бажариладиган кенг кўламли функцияларни ҳам ҳисобга олиш лозим. Бу эса қишлоқ ҳудудларига функционал ёндашувдан фойдаланган ҳолда таъриф беришни тақозо этади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” №5853-сон фармони <https://lex.uz/docs/4567334>
2. Chevalier P., Dedeire M., Ghiotti S., Hirczak M. and Razafimahefa L. (2010). L’espace rural euro-mediterraneen: approches methodologique et typologique. Cahiers de geographie du Quebec, vol. 54, n. 152, p. 291-312.
3. Bański J. and Mazur M. (2016). Classification of rural areas in Poland as an instrument of territorial policy. Land Use Policy. 54: 1-17.
4. Van Eupen M., Metzger M.J., Pirez-Soba M., Verburg P.H., van Doorn A. and Bunce R.G.H. (2012). A rural typology for strategic European policies. Land Use Policy, 2012/07/01, vol. 29, n. 3, p. 473-482. <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264837711000846>
5. Serrano, J. (2014). Approches de la ruralite dans trois pays europeens (France, Suisse, Pays-Bas). In: Larrue C. Le regime institutionnel d’une nouvelle ruralite. Analyses a partir des cas de la France, des Pays-Bas et de la Suisse. Bruxelles: P.I.E. Peter Lang. p. 25-59.
6. Copus A.K. and Noguera J. (2010). A Typology of Intermediate and Predominantly Rural NUTS 3 Regions. Bruxelles: European Union. p.51.
7. Berchoux T., Watmough G.R., Hutton C.W. and Atkinson P.M. (2019). Agricultural shocks and drivers of livelihood precariousness across rural communities. Landscape and Urban Planning. 189: 307-319.;
8. Dijkstra L., Poelman H. (2018). Regional typologies overview. Brussels: European Union. [Consultă en novembre 2019]. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Regional_typologies_overview#Urban-rural_typology_including_remoteness
9. Blanc M. (1997). La ruralite : diversite des approches. Economie rurale, n.24 – p:5-12



10. Rural Development Programmes 2014-2020 // http://ec.europa.eu/agriculture/rural-development-2014-2020/country-files/common/rdp-list_en.pdf

11. Depraz S. (2007). Quelle methode d'analyse pour le rural centre-europeen? In: Maurel M.-C., Lacquement G. Agriculture et ruralite en Europe centrale. Paris: Aux lieux d'etre. p. 19-35. / <https://halshs.archives-ouvertes.fr/halshs-01547480>

**ШИРИН ҚАЛАМПИР НАВ НАМУНАЛАРИНИ КЎЧАТИДАН
ЕТИШТИРИЛГАНДА ЎСУВ ФАЗАЛАР ДАВОМИЙЛИГИ****Аббос Нурқобилович Мамаюсупов**

*Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети қишлоқ хўжалиги
фанлар фалсафа доктори (PhD)
ORCID-0009-0005-1523-9334
abbosmamayusupov821@gmail.com.*

Аннотация: мақолада ширин қалампир нав намуналари кўчатидан етиштирилганда ўсув фазалар давомиЙлигини тадқиқ қилиш мақсадида олиб борилган тадқиқот натижалари чуқур илмий таҳлил қилинган. Шунингдек, турли экиш муддатларида етиштирилган ширин қалампир нав ва дурагайлари меваларини биокимёвий таркиби баён этилган.

Калит сўзлар: шакл, ҳосил, фазалар, нав, дурагай, микдор, фойиз, схема, вариант, озуқа, жадвал, назорат.

Аннотация: В статье представлен подробный научный анализ результатов исследования, проведенного по изучению продолжительности фаз роста при выращивании сортов сладкого перца из рассады. Описан биохимический состав плодов сортов и гибридов сладкого перца, выращенных в разные сроки посадки.

Ключевые слова: форма, урожайность, фазы, сорт, гибрид, количество, процент, схема, вариант, подкормка, график, контроль.

Abstract: The article presents a detailed scientific analysis of the results of a study conducted to study the duration of growth phases when growing sweet pepper varieties from seedlings. It also describes the biochemical composition of the fruits of sweet pepper varieties and hybrids grown at different planting dates.

Key words: form, yield, phases, variety, hybrid, amount, percentage, scheme, variant, feed, schedule, control.

Кириш. Сўнги йилларда республикамизда баҳорги иссиқхоналарда нафақат помидор, бодринг, балки ширин қалампирнинг нав ва дурагайлари ҳам етиштирилмоқда.

Шуни айтиш керакки очик майдонда етиштириладиган ширин қалампир нав ва дурагайлари иссиқхоналарда етиштириш учун ярамайди. Чунки улар соя ерда ўсишга мослашмаган. Булар кўёш энергиясига талабчан бўлмаган нав ва дурагайлاردир. Бундан ташқари иссиқхоналарда етиштириладиган ширин қалампир нав ва дурагайлари морфологик тузилиши ҳамда генератив органлари ҳосил бўлгунча тупларини шакллантиришни талаб этади.

Агар уларга биологияси талаби даражасида шакл берилмаса генератив органлари ўз вақтида ҳосил бўлмайди, ҳосил бўлганлари эса стандарт талаб даражасида мевалар ҳосил қилмайди. Очик майдонда табиий шароитда етиштириш учун яратилган навлар иссиқхоналарда ўсади, аммо ўзларининг биологик имкониятлари даражасида ҳосил тўплай олмайди. Бунга сабаб, илмий манбаларда ёруғ куннинг узунлигини сезиларли даражада қисқариб кетиши, куёш нури таркибидаги ультра бинафша ҳамда инфрақизил ва қисқа тўлқинли нурларнинг етишмаслигидир. Бундан ташқари уларнинг илдиз тизими очик майдонда чегараланмаган ҳолдаги тупроқ қатламида ўсиши ҳам бунга асосий сабаблардан ҳисобланади. Демак, шундай экан баҳорги иссиқхоналарда етиштириш учун ширин қалампирнинг махсус нав ва дурагайлари яратилган.

Баҳорги иситилмайдиган иссиқхоналарда етиштириш учун тавсия этилган ширин қалампирнинг нав ва дурагайлари ўзларининг нафақат морфологик жиҳатдан тузилиши, балки мевасининг йириклиги, этининг ранги, қалинлиги ҳамда уларнинг тупда жойлашиши жиҳатидан, улар бир-биридан фарқ қилади. Бу нав ва дурагай мевалари экспорт қилишга ярокли ва чидамлидир. Юқорида баён этилганлардан маълум бўлдики, баҳорги иситилмайдиган иссиқхоналарни ҳаражатини қоплаш учун сунъий иқлим шароитига мослашган ҳамда бир неча йил мобайнида синовлардан ўтган, эртапишар, юқори ҳосилли, касаллик, заракунандаларга чидамли сояпарвар нав ва дурагайлари экиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар шарҳи. Қалампирнинг меваси 2-4 уяли сохта мева бўлиб, мева эти ва ва уруғлардан иборат. Мева шакли шарсимон ёки чўзиқ конусимон [1]. Мева эти озиқ-овқат учун ишлатилади, бу мева вазнининг 60-85% ни ташкил қилади [2].

Мева юзаси кўпинча бироз тўлқинли, силлиқ ёки бўлакли, озроқ буришган бўлади [3].

Уруғнинг вазни 5 г дан 150 г гача ёки ундан оғирроқ бўлади. Мева узунлиги 1 см дан 30 см гача, диаметри 10-11 см га етиши аниқланган. Уруғ деворларининг қалинлиги 1-8 мм [4, 5, 6]. Мева ҳажми ва вазни етиштириш шароитига қараб ўзгаради, бироқ бу ўзгаришлар ҳар бир биологик хусусиятига ҳам боғлиқдир [7].

Бир ўсимлик учун мевалар сони навнинг хусусиятлари ва ўсиш шароитлари билан белгиланади. Йирик мевали навларда 5-20 дона майда мевали навларда 15-45 донага бўлиши аниқланган. Агар мевалар вегетация даври давомида, биологик етилишдан олдин сийраклаштирилса, ҳар бир ўсимликдаги умумий мевалар сони 20-30 % га ошади [8].

Ширин қалампир меваларининг ранги унинг ўсиши ва пишиши даврида ўзгаради. Биологик пишиб етилиш босқичида, нав ва дурагайлarga қараб, мевалар ранги қизил, сариқ, тўқ сариқ ва жуда камдан-кам ҳолларда жигарранг-бинафша рангларда бўлади [8].

Шаклландиган меваларнинг умумий оғирлиги бутун ўсимликнинг битта қисмидан кўпроқдир, баъзи нав ва дурагайлarda бу кўрсаткич 45% гача кўтарилади. Иккинчи ҳолда, ўсимликнинг ер усти вегетатив оғирлигининг ҳар бир кг га 0,83-1,27 кг мева ва 1м² барг юзаси вазнига 0,36-3,49 кг мева тўғри келиши аниқланган [9].

Адабиётларда келтирилишича, ширин қалампир барглари асосан оддий, яхлит бўлиб, спирал тизимга ўралган ҳолда ёки қарама-қарши йўналишда жуфт бўлиб ривожланади. Ўсимликдаги барглarning катталиги ва сони унинг ёшига ва етиштириш шароитларига боғлиқ [10, 1].

Натижалар ва мунозара. Ширин қалампирнинг қайси нав ёки дурагайини қачон ва қандай экиш бўйича турли минтақадаги олимлар ва мутахассислар ўз тадқиқотларини олиб борганлар. Бироқ, баҳорги иситилмайдиган иссиқхоналарда ширин қалампир нав ва дурагайларини танлаш ва етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш тўлақонли ўрганилмаган. Шу нуқтаи-назардан биз ўз тадқиқотларимизда ширин қалампир 12 донна нав намуналарини баҳорги иситилмайдиган иссиқхоналарда етиштириб, фенологик кўрсаткичларини аниқладик (1-жадвал, 1-расмга қаранг).

Тадқиқотларимиз давомида баҳорги иситилмайдиган баҳорги иссиқхоналарда 50 кунлик кўчатидан етиштирилган ширин қалампир нав намуналарининг ўсув фазалар давомийлиги ҳам йиллар кесимида олинган натижалар асосида алоҳида таҳлил қилинди. Бунда ўсув фазалари давомийлиги нав ва дурагай вариантлари ўртасида ғунчалаш, гуллаш, пишиш ва техник пишиш фазалари каби мезонлар бўйича таҳлил қилинди ҳамда олинган натижалар кун ҳисобида қайд этиб борилди. Стандарт сифатида навлар учун “Дар Ташкента”, дурагай кўчатлари учун эса Юбилей Семко стандарт сифатида танлаб олинди. Фазалараро даврлар таҳлил қилинганида ғунчалаш фазаси учун кўчатларга 2 кундан 25 кунгача бўлган муддат талаб этилгани аниқланди. “Лотто F₁” дурагайи 2 кун ўтгач ғунчалай бошлаган бўлса, “Дар Тошкента ва Заря Востока” навларимизда ушбу фаза 20-25 кундан сўнг содир бўлгани кузатилди. Гуллаш фазаси эса навлар орасидан айнан назорат намунасида кўчатлар экилганидан 27 кун ўтгач, қолган икки стандартларда эса 25 ва 30 кун ўтганидан сўнг мос равишда содир бўлгани кузатилди.

1-жадвал

Ширин қалампир нав намуналарини кўчатидан етиштирилганда ўсув фазалар давомийлиги, 2019-2020 йй.

Т/р	Нав намуналари	Фазалараро даврлар, кун ҳисобида			Техник пишиш, кун
		ғунчалаш	гуллаш	мевалаш	
1	“Дар Ташкента (ст)”	70±2,0	77±1,0	100±3,0	125±2,0
2	“Ласточка”	65±2,0	75±2,0	100±3,0	110±2,0
3	“Заря Востока”	75±1,5	80±2,0	90±2,0	120±3,0
4	“Юбилей Семко F ₁ (ст)”	60±2,0	72±3,0	92±2,0	105±3,0
5	“Фишт F ₁ ”	58±2,8	60±3,0	72±3,0	105±4,0
6	“Белогор F ₁ ”	55±2,1	62±2,2	84±2,0	95±2,0
7	“Фламинго F ₁ ”	53±2,4	58±2,7	65±2,3	70±2,5
8	“Орион F ₁ ”	60±2,0	65±3,0	90±2,0	108±3,0
9	“Лотто F ₁ ”	52±2,6	55±2,2	60±3,1	65±2,4
10	“Амур F ₁ ”	60±2,0	65±2,0	90±3,0	100±2,0
11	“Маратос F ₁ ”	55±3,3	58±3,1	65±3,5	75±2,8
12	“Клавдио F ₁ ”	55±3,1	58±2,6	76±2,5	80±2,2

Дурагайларимизда олиб борилган кузатувлар натижасида эса гуллаш фазаси стандарт вариантими ҳисобланган Юбилей Семко F₁ да бошқа дурагайларимиздан анча кечроқ, яъни 22-кундан сўнг, “Лотто F₁, Маратос F₁, Клавдио F₁ ва Фламинго F₁” дурагайларида эса кўчатлар экилганидан 5-8 кун ўтгач амалга ошгани қайд этилди. Кузатувларимиз навбатдаги фаза – мевалаш фазаси таҳлиллари асосида давом этирилганида, Заря Востока навида стандартга нисбатан 10 кун илгарироқ илк мевалар ҳосил бўлгани, стандарт нави ҳамда Ласточка навида эса 50 кунда мевалаш фазаси бошлангани аниқланди. Дурагайлар орасидаги кўрсаткичлар таҳлил қилинганда эса Юбилей Семко F₁ назорат намунасида 42 кундан сўнг, бошқа дурагайларга нисбатан бирмунча кечроқ мевалаш жараёни бошлангани аниқланган бўлса, “Лотто F₁, Маратос F₁, Фламинго F₁” дурагай намуналарида 10-15 кун ўтгач содир бўлгани қайд этилган. Нав ва дурагайларимизда техник пишиш даври таҳлил қилинганда, навлар орасида назорат навининг 50 кунлик кўчатларида 75 кунда, “Ласточка”да 60, “Заря Востока” навида 70 кун давомида амалга ошгани маълум бўлди. Дурагай намуналардаги техник пишиш даври давомийлиги таҳлил қилинганда назорат сифатида олинган “Юбилей Семко F₁” дурагайи учун техник пишиш фазасига 55 кун талаб этилгани, стандартга нисбатан таққосланганида қолган 8 та дурагай намуналаримизда ҳам 15 кундан 58 кунгача муддатда техник пишиш даври амалга ошгани аниқланди.

Хулоса

Ширин қалампир нав намуналари орасидан “гуллаш” ва “мева пишиш” фазаларида асосий поя узунлиги, ён шохлар сони “Белогор F₁ ҳамда Фишт F₁” дурагайлари юқори кўрсаткичда бўлганлиги қайд этилди. Маълумки, ён шохлар сони ўсимликда қанча кўп бўлса, бу бевосита ўсимликнинг ҳосилдорлигига ҳам ўзининг ижобий таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Биз алоҳида номларини таъкидлаб ўтган юқоридаги 2 та дурагайларда эса айнан ушбу ҳолатдаги устунлик ҳар икки фазада ҳам ўз аксини топгани қайд этилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Воронина М. В. Перец сладкий в защищённом грунте.-Л.: Агропромиздат, 1989. - С. 56.
2. Симонов А.С. Детков Н.С. Перец в весенних теплицах. // Ж. Картофель и овощи. Москва 1982. № 5. –С.28.
3. Гикало Г.С. Перец.-Краснодар, КГАУ, 1997. -С.135.
4. Борисов В. А. Перец сладкий. Пищевые и целебные свойства. Качество и лёжкость овощей.-М., 2003.-С. 377-388.
5. Король В.Г. Новое в овощеводстве защищенного грунта. Гавриш, 2005 №6. - С. 4-8.
6. Огнев В. В. и др. Экологически безопасная продукция перца сладкого в весенних теплицах. Картофель и овощи. – 2019. – №. 1. – С. 13.
7. Симонов Л. С, Детков Н. С. Влияние густоты посадки на урожай перца сладкого в пленочных теплицах. — Пути повышения продуктивности посевов овощных культур в ЦЧЗ. Сборник научных трудов. — Воронеж, изд., ВСХИ, 1984, с. 53-61.
8. Гикало Г.С. Перец.-М.: Колос, 1982.-С. 119.\
9. Лудилев В. А. Культура перца на Северном Кавказе Гиш.-Краснодар, 1999.- С. 214.
10. Сергоманов С.В. Перец сладкий на юге Красноярского края может давать высокий урожай. // Ж.Картофель и овощи. -2007.-№6. –С. 67-69.

**BROKKOLI KARAMINING O‘ZBEKISTON JANUBI TUPROQ-IQLIM SHAROITIGA
MOS ISTIQBOLLI NAV NAMUNALARINI TANLASH**

Nurmatov N.J. - Termiz davlat pedagogika instituti Kimyo-biologiya kafedrasida dotsenti, q.x.f.d.

ORCID: [0009-0001-8825-646X](https://orcid.org/0009-0001-8825-646X)

E-mail: nurmatovnorgobil@gmail.com



*Xudoyberdiyeva N.A. - Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch
doktoranti*

ORCID: [0009-0005-5953-081X](https://orcid.org/0009-0005-5953-081X)

F-mail: xudoyberdievanodira67@gmail.com

Kalit so‘zlar. Brokkoli karami, nav, duragay, umumiy hosildorlik, karambosh vazni, nav tanlash, qiyosiy nav.

Ключевые слова. Капуста брокколи, сорт, гибрид, общая урожайность, масса кочана, подбор сортов, стандартный сорт.

Key words. Broccoli, variety, hibryd, total yield, head weight, selection of varieties, sstandard variety.

Annotatsiya. Mazkur maqolada brokkoli karamining O‘zbekiston janubi tuproq-iqlim sharoitiga mos nav namunalarini tanlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Fabrika zdorovya navi hamda F₁ Monako va F₁ Bataviya duragaylari istiqbolli nav amunalari sifatida tavsiya qilingan.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований по подбору сортов брокколи, подходящих для почвенно-климатических условий южного Узбекистана. В качестве перспективных сортообразцов рекомендованы сорт Фабрика здоровья, а также гибриды F₁ Монако и F₁ Батавия.

Abstract. This article presents the results of research conducted on the selection of broccoli varieties suitable for the soil and climatic conditions of southern Uzbekistan. The Fabrika zdorovya variety and the F₁ Monaco and F₁ Batavia hybrids are recommended as promising varietal samples.

Kirish. Brokkoli karami (*Brassica oleracea* L.) - karamdoshlar oilasi, gulkaram kenja turiga mansub bir yillik sabzavot ekini hisoblanadi (A.T.Lebedeva, 2003).

Brokkoli karami tarkibida oqsillar, uglevodlar natriy, kaliy, kaltsiy, magniy, fosfor, temir va yod moddalarini saqlaydi. Tarkibidagi C vitamin miqdori bo'yicha limondan qolishmaydi, shuningdek, karamning boshqa turlariga nisbatan B₁, B₂, B₆, PP, C vitaminlarini ko'p miqdorda saqlaydi. Brokkoli karamini iste'mol qilish insonda moddalar almashinuv jarayonlari, asab va ovqat hazm qilish tizimlari, ayniqsa, jigar, o't qopi va oshqozon ichak faoliyatiga jobiy ta'sir qiladi.

Karamning boshqa turlariga nisbatan tezpisharliligi, issiqqa va qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyati tufayli brokkoli karamini mamlakatimiz janubi sharoitida yetishtirib, mahsulotini eksportga chiqarish imkoniyatlari juda katta. Shuning uchun ushbu sabzavot ekinini mamlakatimiz janubi sharoitiga introduktsiya qilish, ularni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish birinchidan sabzavotlar assortimentini ko'paytirishga, ikkinchidan mahsulotini eksport qilishga imkon beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda brokkoli karamining O'zbekiston janubi tuproq-iqlim sharoitiga mos nav namunalari tanlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqotlar obyekti. Tadqiqotlar obyekti sifatida brokkoli karamining 8 ta nav namunalari tanlab olindi (1-jadval).

Tajribada har bir nav namunasi 70x40 sm sxemada ekildi. Ekish muddati 20-iyul. Nav namunalari taqqoslash uchun qiyosiy nav sifatida respublikamizda rayonlashgan F₁ Naksos duragayi xizmat qildi.

1-jadval

Brokkoli karamining o'rganilgan nav namunalari to'plami

№	Ekin turi	Nav namunalari nomi	Kelib chiqishi
1.	Brokkoli karami	F ₁ Naksos	Yaponiya
2.	Brokkoli karami	Fabrika zdorovya	Rossiya
3.	Brokkoli karami	Linda	Chexiya
4.	Brokkoli karami	Istochnik sily	Rossiya
5.	Brokkoli karami	Tonus	Rossiya
6.	Brokkoli karami	F ₁ Manaka	Gollandiya
7.	Brokkoli karami	F ₁ Manklana	Belarus
8.	Brokkoli karami	F ₁ Bataviya	Italiya

Tadqiqotlar uslubi. Dala tajribalarini o'tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig'ish, hisoblash va tahlillar Metodika polevogo opyta v ovoshevodstve (pod red. Litvinova S.S., M., 2011), Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), Metodicheskiye ukazaniya po ekologicheskomu ispytaniyu ovoshnyx kultur v otkrytom grunte (M., VNISSOK, 1987) kabi uslubiy ko'rsatmalar asosida olib boriladi.

Dala tajribalarida olingan natijalarning matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov (1985) usulida hisoblanadi.

Tajribada har bir nav namunasi 70x40 sm sxemada ekildi. Ekish muddati 20-iyul. Nav namunalari taqqoslash uchun qiyosiy nav sifatida respublikamizda rayonlashgan F₁ Naksos duragayi xizmat qildi.

Tadqiqotlar natijalari. O'rganilgan nav namunalari karamboshlarning o'rtacha vazni hisoblanganda asosiy hosilda qiyosiy F₁ Naksos duragayi karamboshlari o'rtacha vazni 494,8 grammni tashkil etdi. Shuningdek, nav namunalari karamboshlarining o'rtacha vaznini qiyosiy nav bilan taqqoslanganda F₁ Monako duragayida 612 gramm, Fabrika zvyozd navida 652,4 gramm

F₁ Bataviya duragayida 684,5 grammni tashkil qilib, mos ravishda 3,0%, 9,7 % va 15,1 %ga yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. (2-jadval).

Ma'lumki, gulkaramdan farqli ravishda brokkoli karami poyasida ko'plab yon shoxlar hosil bo'ladi va ularda karamboshlar shakllanib qo'shimcha hosil olish imkonini beradi. Bizning tajribalarimizda xuddi markaziy karamboshda bo'lgani kabi yon sxlarda hosil bo'lgan karamboshlardan hosil miqdori ham F₁ Monako, F₁ Bataviya duragaylari va Fabrika zvyozd navida yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi va mos ravishda 5,2 t/ga, 6,0 t/ga va 5,5 t/ga ni tashkil qildi.

2-jadval

Brokkoli karami nav namunalari karambosh vazn ko'rsatkichlari, gramm (2023-2024 yy.)

Nav namunalari	Asosiy hosil		Qo'shimcha hosil	
	Karam-bosh vazni, g	Qiyosiy navga nisbatan, %	Karam-bosh vazni, g	Qiyosiy navga nisbatan, %
F ₁ Naksos q.n.	594,8	100	136,4	100,0
F ₁ Bataviya	684,5	115,1	173,2	126,9
Fabrika zdorovya	652,4	109,7	154,1	113,0
F ₁ Monako	612,8	103,0	148,5	108,9
Istochnik sily	518,8	87,2	119,3	87,5
F ₁ Manklana	401,6	67,5	97,3	71,3
Linda	390,2	65,6	84,1	61,6
Tonus	311,4	52,3	74,4	54,5

Qo'shimcha hosilda ham F₁ Monako va F₁ Bataviya duragaylari hamda Fabrika zdorovya navida karambosh vazni ko'rsatkichi qiyosiy navga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Nav namunalari olinadigan hosil miqdori ularni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy qilishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. O'rganilgan nav namunalari hosildorlik ko'rsatkichlari hisoblanganda, hosildorlikning yuqori yoki past bo'lishi karamboshlarning o'rtacha vazniga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. Eng yuqori umumiy hosildorlik F₁ Monako, F₁ Bataviya duragaylari va Fabrika zvyozd navida qayd etilib, ushbu nav namunalari umumiy hosildorligi gektaridan mos ravishda 26,8 t/ga, 28,3 t/ga va 30,1 t/ga ni tashkil qildi va qiyosiy navga nisbatan mos ravishda 6,7%, 12,7% va 19,9% ga yuqori bo'ldi.

3-jadval

Brokkoli karami nav namunalari hosildorlik ko'rsatkichlari (2023-2024 yy.)

Nav namunalari	Hosildorlik, t/ga		
	Asosiy hosil	Qo'shimcha hosil	Umumiy hosil
F ₁ Naksos q.n.	20,5	4,6	25,1
F ₁ Bataviya	24,1	6,0	30,1
Fabrika zdorovya	22,8	5,5	28,3
F ₁ Monako	21,6	5,2	26,8
Istochnik sily	18,0	4,2	22,2

F ₁ Monklano	14,0	3,5	17,5
Linda	13,5	2,8	16,3
Tonus	11,0	2,5	13,5

Xulosa. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, Linda, Istochnik sily, Tonus navlari va F₁ Monklano duragayi karamboshining vazni va umumiy hosildorligi bo'yicha qiyosiy nav sifatida olingan F₁ Naksos duragayiga nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'ldi. Fabrika zdorovya navi hamda F₁ Monako va F₁ Bataviya duragaylari karamboshining vazni va umumiy hosildorlik bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi va ular O'zbekiston janubi sharoitida yetishtirish uchun istiqbolli nav namunalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov B.J., Azimov B.B., Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. – T. 2002. – B. 176-178.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta, 5-e izd-e, M,: Agropromizdat, 1985. - 351 s.
3. Litvinov S.S. Metodika polevogo opyta v ovoshevodstve.-M. 2011 - 650 s.
4. Lebedeva A.T. Sparjevaya kapusta brokkoli. - Sad i ogorod, 2003. - № 5. – S. 2–5.
5. Metodicheskiye ukazaniya po ekologicheskomu ispytaniyu ovohnyx kultur v otkrytom grunte M. - VNISSOK. – 1987. – Cast I. -123 s.

**PREPARATION OF HERBAL-BASED MEDICINAL BEVERAGES AND
DETERMINATION OF THEIR SAFETY INDICATORS.****Nurmatova Uljamol Mamataliyevna****ORCID: 0009-0009-7165-8479**oyjamolnurmatova4@gmail.com

*Master's Student, 1st Year, Food Safety Program, Faculty of Food and Winemaking Technology,
Tashkent Institute of Chemical Technologies
Special Subject Teacher, No. 2 Polytechnic College, Sho'rchi District*

Abstract: This study investigates the preparation methods, chemical composition, and safety parameters of medicinal beverages produced from selected medicinal plants. Herbal extracts derived from *Plantago major*, *Mentha piperita*, and *Matricaria chamomilla* were used to formulate functional beverages. The analysis focused on identifying bioactive compounds, evaluating antioxidant capacity, and determining microbiological and toxicological safety indicators. The results demonstrate that beverages based on these medicinal plants possess significant therapeutic potential while meeting essential safety standards. The research highlights the importance of quality control in the production of herbal-based medicinal drinks and provides recommendations for ensuring their safe consumption.

Keywords: Herbal beverages; medicinal plants; *Plantago major*; *Mentha piperita*; *Matricaria chamomilla*; bioactive compounds; antioxidant activity; safety indicators; toxicological analysis; microbiological safety; functional drinks.

Introduction

The growing global interest in natural and plant-based products has intensified research on the development of herbal beverages with proven therapeutic value. Medicinal plants have long been used in traditional healthcare systems due to their rich composition of biologically active compounds such as flavonoids, phenolic acids, terpenoids, essential oils, and vitamins. These phytochemicals exhibit a wide range of pharmacological effects, including antioxidant, anti-inflammatory, antimicrobial, immunomodulatory, and detoxifying properties. As a result, beverages formulated from medicinal herbs are increasingly recognized not only as refreshing drinks but also as functional products capable of promoting human health. In recent years, the commercialization of herbal beverages has expanded rapidly; however, this growth has also raised concerns regarding their quality, safety, and standardization. The chemical composition of herbal drinks can vary significantly depending on plant species, ecological conditions, harvesting time, extraction techniques, and storage conditions. Moreover, contamination with heavy metals, pesticide residues, pathogenic

microorganisms, or excessive levels of biologically active compounds may pose potential health risks. Therefore, scientific evaluation of both the functional efficacy and safety parameters of plant-based beverages is essential.

